

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma xuquqida

UDK

G'ulomova Rayhona Rustamjonovna

Akademik litsey talabalarining ingliz tili darslarida sotsiologiyistik
kompetensiyalarini shakllantirish metodlari

5A120101- Adabiyotshunoslik(tillar va tadqiqot yo'nalishlari
bo'yicha)

Magistr akademik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

p.f.n Sh.N. Ubaydullayev

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI****NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Fakultet _____

Magistratura

talabasi _____

Kafedra _____

Ilmiy

rahbar _____

O'quv yili _____

Mutahassisligi _____

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

-mavzuning dolzarbligi;

-ishning maqsad va vazifalari;

-tadqiqot obyekti va predmeti;

-tadqiqot uslubi va uslubiyoti;

-tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi;

-ish tuzilishi va tarkibi;

-bajarilgan ishning asosiy natijalari;

-xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi;

Ilmiy rahbar: _____

Magistratura talabasi: _____

Kirish.....	4
I BOB. SOTSIOLINGVISTIKANING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI	
I.1. Sotsiolingvistika faninig rivojlanish tarixi.....	10
I.2. Sotsiolingvistik ijtimoiy guruhlar haqida umumiy tushuncha...18	
I.3. Sotsiolingvistik kompetensiya va uning chet til ta'limida tutgan o'rni	25
Birinchi bob yuzasidan xulosalar.....	32
II BOB. AKADEMIK LITSEY TALABALARINING INGLIZ TILINI O'RGANISHLARIDA YUZAGA KELUVCHI SOTSIOLINGVISTIK MUAMMOLAR TAHLILI	
II.1. Chet til ta'limida talabalarning jinsi (gender) va yosh hususiyatlarining o'ziga hosligi.....	36
II.2. Ingliz tili darslarida til materialini taqdim etishda talabalarning yosh hususiyati bilan bog'liq muammolar.....	42
II.3. O'zbekistonda horijiy til o'qitish tizimi va uning ahamiyati.....	48
Ikkinchi bob yuzasidan hulosalar.....	55
III BOB AKADEMIK LITSEY TALABALARINING INGLIZ TILI DARSLARIDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPOTENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI.	
III. 1. Sotsiolingvistik kompotensiyani shakllantirish usullari.....	57
III. 2. Ingliz tili darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, talabalar sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish.....	64
III. 3. Akademik litsey talabalarining ingliz tili darslarida sotsiolingvistik kompotensiyalarini shakllantirish metodlarining eksperimental tadqiqi.....	70
Uchinchi bob yuzasidan xulosalar.....	77

Umumiy xulosalar.....	79
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	80
Ilovalar.....	83

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon ta'lim sohasiga oid ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Islohotlardan eng ahamiyatlisi bu ta'lim tizimini tubdan yangilash va takomillashtirishga qaratilgan kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilishidir. Ayni dasturning uch bosqichidan birinchi bosqichi (1997-2001) - tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatdan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlarni yaratish; dasturning amalga oshirilishi barcha davlat, ilmiy, sanoat va nodavlat tashkilotlarning ajralmas qismi bo'lishi; yangi o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari turlari (kasb-hunar kolledj va akademik litseylar) va ikki bosqichdan iborat oliy ta'lim tizimini kiritgan holda uzluksiz ta'limning yangi tizimi o'z faoliyatini boshlashdan iborat bo'lib bu islohotlar ikkinchi, uchinchi bosqichlarda amalga oshirilib kelinmoqda.

Ayni akademik litseylarda horijiy tillarni o'rgatish ham shu bosqichlarda o'z ifodasini topgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875 son qaroriga muvofiq ta'limning barcha bosqichlarida horijiy tillarni ayniqsa ingliz tilini o'rgatish/o'rganishni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda olib borishda ilg'or uslublarni joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillardan bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutahassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, halqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari lozimligi ko'zda tutilgan.ⁱ

Ushbu qarorga muvofiq ta'limning barcha bosqichlarida qaror ijrosi amalga oshirilmoqda. Qarorda ko'zda tutilgan o'quvchi, talabalarning ingliz tilidagi og'zaki bilim-ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hozirgi kundagi

dolzarb masalaga aylangan bo'lib, ayni vazifani akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Akademik litsey dasturidagi asosiy vazifalardan biri ham o'quvchilarning maktabda ingliz tili fanidan o'zlashtirgan leksik-grammatik ko'nikmalari va nutqiy malakalarini yangi mavzular doirasida yanada mustahkamlash, ularning og'zaki (gapirish, tinglab tushunish) va yozma (o'qish va yozuv) nutqiy faoliyatlari orqali ularni muloqotga kirishish madaniyatlararo muloqotga tayyorlashdan iboratdir. Akademik litsey talabalarining ingliz tilini chet tili sifatida o'rganishlari davomida, tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati, muloqot uslubi va tilning o'ziga hos jihatlarini ham bir vaqtda o'rganib borishlari, ya'ni sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish ayni dolzarb masalaning yechimi hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi quyidagi omillar bilan asoslanadi: birinchidan, akademik litsey talabalariga ingliz tilini o'rgatishda ularning yosh va jins xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, tili o'rganilayotgan mamlakat vakillarining muloqot uslubi va so'zlashish madaniyatiga oid materiallarni dars jarayoniga tadbiq etishga bag'ishlangan alohida ilmiy-pedagogik tadqiqot olib borilgan emas; ikkinchidan, talabalar ingliz tilidagi shevaga xos so'zlar (dialekt) va ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar vakillari nutqida uchrovchi sotsiolingvistik xodisalar bilan yaqindan tanish emasliklari bois, ularga nutq faoliyati turlarini o'rgatish jarayoni (tinglab tushunish va o'qish)da vujudga keladigan qiyinchiliklar va oqibatda yo'l qo'yadigan hatolarning oldini olishga, talabalarning ingliz tilidagi sotsiolingvistik nutqini o'stirishga qaratilgan metodlar yaratilmagan; uchinchidan, ingliz tilini kommunikativ (muloqot) va kumulyativ vosita maqomida o'rganishda didaktik ketma-ketlikka amal qilish usullari ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari ilmiy mavzuning mohiyatidan kelib chiqadi. Ishning asosiy maqsadi ingliz tili darslarida talabalarning yosh va jins faktorlariga moslangan o'zida sotsiolingvistik hususiyatlarni aks ettiruvchi mamlakatshunoslikka oid matn va audio materiallar shuningdek, jadval va flesh

aktiv video lavha va mashqlar yordamida talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirish va eksperimental sinovdan o'tkazilgan uslubiy texnologiyani yaratishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti akademik litsey talabalariga ingliz tilini o'rgatish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti akademik litsey talabalarining ingliz tilidagi sotsiolingvistik kompetensiyasini kommunikativ yondashuv doirasida lingvomamlakatshunoslikka oid matnlarni o'qish va tinglab tushunish shuningdek, amalda qo'llash malakasini oshiruvchi metodlar bilan shakllantirish va samarador texnologiyani ishlab chiqishdan iborat

Tadqiqot uslubiyati va uslublari: mavzuga tegishli metodik, psixologik, lingvistik, didaktik va boshqa manbalarni *o'rganish*; litseylarda qo'llanadigan o'quv dasturi, qo'llanmalar va boshqa o'quv vositalar mazmunini *tahlil* qilish; dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni maqsadli *kuzatish*; o'quvchilar va o'qituvchilarga tarqatilgan maxsus anketa savollariga *javob olish*; inglizcha matnlarni *o'qib, tinglab tushunish* malakalarini takomillashtirish texnologiyasini tekshirib ko'rishga qaratilgan *tajriba-sinov* o'tkazish.

Tadqiqot material sifatida nazariy va amaliy manbaalar, mavjud chet til darsliklari va qo'llanmalari, ingliz madaniyatini va sotsiolingvistik xususiyatlarni o'zida aks ettirgan lingvomamlakatshunoslikka oid matnlar, audio va video materiallar, amalda bajarilishi lozim bo'lgan aktiv mashqlar va jadvallar tanlab olindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi:

- talabalarga ingliz tili o'qitish jarayonida sotsiolingvistik yondashuv asosida ilk bor madaniyatlararo muloqotning muhiti hamda muloqot ishtirokchilarining yosh va jinsiga ko'ra to'g'ri muomala usulini tanlay olish layoqatini shakllantirishning samarali metodik tizimi ishlab chiqildi va nazariy asoslandi, pedagogik sharoitda tajriba-sinovdan o'tkazildi;

- “Sotsiolingvistik predmetlar” ilmiy atamasi ilk bor qo'llanildi va uning sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishdagi o'rni ochib berildi;

• tili o'rganilayotgan mamlakatlar vakillarining tabiiy nutqiga asoslangan audio va yozma matnlar bilan talabalar tanishtirildi, samaradorligi o'rganildi

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu: chet til ta'limi jarayonida sotsiolingvistikaning tutgan o'rni va til o'rganuvchilarning sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga doir quyidagi ilmiy izlanishlar olib borilgan:

1. Til va sotsiolingvistika (B. Kachru, C. Nelson, Karaulov Y.N).
2. Sotsiolingvistikada jins faktorlarining o'rni (Kirsten Petersen, Naomi L. Shitemi, Jennifer Marie Bayer).
3. Tarjima va sotsiolingvistik muammolar (Melanie Metzger and Earl Fleetwood, Janis Silis, D. F. Suslak)
4. Madaniyatlararo muloqotda yuzaga keluvchi sotsiolingvistik muammolar (Kerol W. Pvaff, Ye. Artyux)
5. Sotsiolingvistik kompetensiyaning chet til o'rganish va madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati (Michael Canale & Merrill Swain, Courtney M, Richard Nordquist, Claire Ann Mizne).
6. Sotsiolingvistik predmetlar va ularning chet tilida erkin muloqot qilishdagi vazifasi (Carla Cariboni Killander, Laura Zarbaliyeva, Andrew Finch Kyungpook).

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda mavzuga oid ishlar keng va izchil tarzda olib borilgan ammo, ularda ayni akademik litseylarda ingliz tili ikkinchi yoki uchinchi til sifatida o'rganish jarayonida til o'rganuvchilarning ypsht va jins xususiyatlarini hamda sotsiolingvistik faktorlarni hisobga olgan holda talabalarga horijiy til o'rgatish yoki muomala madaniyati va og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan metodlar ko'rsatilmagan yoki sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishning pedogogik-psixologik va lingvo-didaktik asoslarini o'rganish tadqiqot vazifasiga kirmagan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilova qismlaridan iborat.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari:

1. AL talabalarida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish orqali to'g'ri muloqot qila olish layoqatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi.

2. Dunyo hamjamiyatida yuqori o'rinlarga ko'tarilishda chet tilini egallaganlik, madaniyat va tili o'rganilayotgan mamlakat aholisining sotsiolingvistik o'ziga hosliklarini yaxshi bilishning roli.

3. "Sotsiolingvistik predmetlar" atamasining sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berilishi.

4. Talabalarda sotsiolingvistik kompetensiyaning shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqilganligi.

5. Ingliz tili darslarida shevaga hos so'zlar(dialektlar), yosh, ijtimoiy kelib chiqish, kasb, din, millat, jins faktorlarini o'zida aks ettirgan o'quv materiallari orqali akademik litsey o'quvchilarining qiziqishini oshirish hamda ularning to'g'ri va to'liq yozma, og'zaki nutqini rivojlantirishga, dunyoqarashining o'sishiga hizmat qiladigan ta'limiy o'quv topshiriqlarining ahamiyatini ko'rsatib berish

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi: AL talabalarida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish mumkin agar:

- darsliklarda jins va yosh faktorlariga mos va qiziq bo'lgan materiallar berilsa;

- ingliz tili o'qituvchilari kommunikativ metodikaning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda talabalarining ingliz tilida ixtisosiy nutq malakalarini rivojlantirish ustida ishlashga e'tibor berilsa;

- nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunishga alohida e'tibor qaratilsa;

- talabalarga sotsiolingvistikaning chet til o'rganish jarayonidagi roli ochib berilsa, undan to'g'ri foydalanishdagi ahamiyati va madaniyatlararo muloqotni o'rgatishning mazmuni, shakllari va metodlari tizimi ishlab chiqilsa;

- ushbu metodlarni dars va darsdan tashqari ishlarga keng tadbiq etilsa.

Natijalarning e'lon qilinganligi: Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 14 ta, jumladan OAK ro'yxatidan o'tgan "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida 2 ta, "Intellekt" jurnalida 1 ta, Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar

materiallari va ilmiy to'plamlarida 6 ta, "Til va tarjima muammolari" ilmiy maqolalar to'plamida 1ta, Namangan davlat universiteti Axborotnomasida 4 ta ilmiy maqolalar chop etildi.

BOB. SOTSIOLINGVISTIKANING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

I. 1. Sotsiolingvistika fanining vujudga kelish va rivojlanish tarixi

Sotsiolingvistika fani sotsiologiya va tilshunoslik fanlarining tutash joyida rivojlanayotgan soha hisoblanadi. U tilshunoslik yo`nalishidagi fan bo`lib, ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o`rnini, til taraqqiyotini va tilning funksional jihatlarini hamda jamiyat til uchun, til esa jamiyat uchun xizmat qilishini o`rganadi. Sotsiolingvistikada til tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Til jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib boradi va insoniyat tarihi kabi qadimiydir. Chunki, til ham insoniyat kabi o`tmishga ega, u ham bosqichma bosqich kengayib bordi, taraqqiy etdi. (Urug`doshlik tili, qabila tili, elat, xalq va millat tili)

Tilshunos E. Dyurkgeym tilni jamiyat boyligi deb ta`kidlagan bo`lsa, yana bir tilshunos A. A. Leontev uni ijtimoiy hayot ko`rinishi deya ta`kidlaydi. Shunga o`xshash fikrni G. Leybnitsda uchratishimiz mumkin. U esa tilni, inson ruhiyatining oynasi sifatida e`tirof etadi.¹ Darhaqiqat, til millat haqida uning madaniyati, insonlarning temperamenti, dunyoqarashi to`g`risida ma`lumot bera olish hususiyatiga ega. Masalan, fransuz tili va fransuz madaniyatiga mansub bo`lgan insonlar karakter va temperamenti tilda ham ko`zga tashlanadi.

Aytish mumkinki, horijiy tilni yaxshi o`rganish yoki shu tilda fikrni erkin ifoda eta olish uchun tilni his qilish, nutqiy intuitsiyani o`stirish talab etiladi. Shu bilan birga, har bir til o`z ko`rinishi va til sohiblarigagina aniq bo`lgan o`z til kodiga ega. Ya`ni, horijiy til o`rganuvchi tili o`rganilayotgan mamlakat tilidagi millat madaniyatiga hos elementlarni yetarli darajada tushunmasligi yoki, anglamasligi, uning lug`at boyligining kamligidan, kerakli iboralarni qo`llay olmasligidan, madaniyatni to`g`ri tushunmaslikka, umumiy fikrga kela olmaslikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham, har qanday tilda tildan foydalanayotgn millatning milliy elementlari aks eta boshlaydi. Yoki til bir necha millatga ona tili ya`ni ichki til bo`lsa, bu holatda ham birgina tilning turlicha ko`rinishlari

¹ B. A. Serebrennikov “Obshiyе yazikoznaniye. Formi sushestvovaniya, funktsii, istoriya yazika” M. 1970. 417

(grammatik, fe'l zamonlari va predloglarning ishlatilishida, leksik, friend- britain "mate", american "pal", australian "cobber" fonetik, britain "centre", american "center") paydo bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Bu esa ijtimoiy hayotning tilga ta'siri hisoblanadi. Aynan shu holatni esa sotsiolingvistika ko'rib chiqadi. Jamiyat taraqqiyoti davomida tilning jamiyatga bo'lgan nisbati to'g'risida turli hil nazariya va qarashlar vujudga kelgan bo'lib, ba'zi guruhlar tilni tirik organizm sifatida tushunishgan bo'lsa, ba'zilari o'zgarmas voqe'lik sifatida qabul qilishgan.

Sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatlarini tahlil qilar ekan, umumiy va hususiy qonuniyatlarga tayanadi. Umumiy qonuniyatlardan biri bu tilning tirik organizm emas, balki ijtimoiy vazifaga ega bo'lgan aloqa vositasi. Shuningdek, tilning mavjud bo'lishi yoki rivojlanishi tabiat qonunlariga bog'liq emas. Bu haqda tilshunoslar quyidagicha izoh berishadi: "Yangi tug'ilgan go'dak hayotining takomili (nafas olishi, ko'rishi, ovqat yeyishi, asta sekin yurib ketishi va hakazo) tabiat qonunlariga muvofiq taraqqiy eta boradi, ammo til bunday hodisa emas. So'zlashish, fikrlash uchun jamiyatning bo'lishi shart".²

Ijtimoiy lingvistika hayot qonuniyatlarini til faktlari asosida o'rganar ekan, uning o'ziga xos xususiyatlarini anglab olish lozim bo'ladi. Avvalambor, sotsiolingvistikani bir necha termin ostida nomlanishi bunga yaqqol misoldir. Jumladan, "ijtimoiy til", "ijtimoiy tilshunoslik", "tilshunoslikning ijtimoiyligi", "falsafiy tilshunoslik", "tilning ijtimoiyligi", "sotsio-lingvistika" kabi atamalar bilan nomlashlar bu fanning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

Sotsiolingvistika psixolingvistika, etnolingvistika, pragmatika, semantika kabi tilshunoslikning bo'limlari bilan ham chambarchas bog'liq. Psixolingvistikada so'zlovchining qanday so'zlagani uning ruhiy holatiga bog'liqligini ko'rsatsa, etnolingvistika til tarixini, pragmatika so'zlovchining nutq so'zlayotganda ishlatuvchi jestlarining ahamiyatini, semantika esa qo'llanayotgan so'zlarning ma'no-mazmunini o'rganadi. Bu holatlar esa, sotsiolingvistikada ham muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, to'g'ri so'zlashda so'zning ma'nosi horijiy tilda

² Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. O'zMu. T. 2007. b. 4.

so'zlovchilarining harakatlari, ruhiyati va til tarixini ham bilish asosiy o'rinni egallaydi.

Fanda sotsiolingvistikaning paydo bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlarning birida "sotsiolingvistika" atamasi birinchi marta Tomas Kollen Hodsonning 1939 yil "Man in India" ro'znomasida chop etilgan "Sociolinguistics in India" sarlavhali maqolasida keltirilgan³ deyilsa, boshqa bir ma'lumot ko'ra "sotsiolingvistika" termini birinchi bora 1952 yil amerikalik sotsiolog German Karri tamonidan tadbiiq etilganligi e'tirof etiladi. Shuningdek, g'arb tilshunosligida ham bu atama 1960 yil AQSH da William Labov, Angliyada Basil Bernstein tamonidan ham qo'llanilganligini ko'ramiz.⁴ Ko'p olimlar William Labovni sotsiolingvistikanig asoschisi deb bilishadi, chunki u jamiyat vakillarining tilga turlicha ta'sirini ilmiy isbotlagan.⁵

Asrimizning boshlaridanoq Fransiya, Rossiya, Chexiya, Hindiston va AQShda sotsiolingvistika tilshunoslikdan ajralgan holda alohida fan sifatida o'qitila boshlandi. Bu fanning taraqqiy etishida juda ko'plab olimlar ish olib borishgan. Bular: I.A. Boduen de Kurtune, Ye. D. Polivanov, L. P. Yakubinskiy, V. M. Jirmunskiy, B. A. Larin, A. M. Selishev, G. O. Vinokur, F. Bryuno, A. Maye, P. Lafarg, W. Labov, T. Kollen, Sh. Balli, J.Vandries, B. Gavranek, A. Matazeus. Ularning g'oya va izlanishlari orqali sotsiolingvistika taraqqiy eta oldi.

20-30 yillarda rus tilshunos olimlari bu fanni ikki xil "Sotsial'naya lingvistika", "Sotsiolingvistika" kabi atamalar bilan nomlash asosida o'rganib keldilar. 50-yillarga kelib "Sotsiolingvistika" terminini hayotga tadbiiq etish ma'qul variant deb topildi. Bunig sababi, tilning hayot bilan, jamiyat bilan chambarchas

³ Paulston, Christine Bratt and G.Richard Tucker."Sociolinguistics" The essential readings. Malden, Ma: Wiley-Blackwell 2003.

⁴ Labov W (2001) "Principles of Linguistics, Changes: Social Factors" Malden, Ma: Blackwell. Dublin.

⁵ Paolillo, John C. Analyzing Linguistic Variation: Statistical Models and Methods CSLI Press 2001, Tagliamonte, Sali Analysing Sociolinguistic Variation Cambridge, 2006

bog'liqligi, milliy an'ana va milliy qadriyatlarning yuzaga kelishi sotsiolingvistika terminiga mosdir.

XX asrning 60 yillarida Osiyo va Yevropada sotsiolingvistik izlanishlar izchil ravishda olib borila boshlandi. Bu davrda pochta orqali yig'ilgan savollarga javoblar natijasida Villiam Labov sotsiolingvistik lug'at yaratdi. Tilshunos olim Krisin XX asrning 80 yillarida insonlar talaffuzlarining o'ziga hosliklari to'g'risida tajriba o'tkazdi. Bu izlanishlar natijasida sotsiolingvistikaning o'ziga hos qirralari ochib berildi.

“Sotsiolingvistika” termini, ikki soha tutash nuqtasida yuzaga kelganligi bois, bu o'z navbatida fanlararo munosabatlarni rivojlantirishga muhim omil bo'la oladi.

Sotsiolingvistikani fan sifatida o'rganish jarayonida uning umuminsoniy hamda siyosiy xususiyatlari, jumladan, til va jamiyat, til va mafkura, til va tafakkur, til va xalq, til va yosh, til va jins, davlat institutlarida til, til taraqqiyotini rejalashtirish, shuningdek, tilning falsafiy xususiyatlarini o'rganish lozim. Ayniqsa, ko'pgina tilshunos olimlar nazdida “sotsiolingvistika”ni falsafiy tilshunoslik deb qarashlar ham bu fanni boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligini anglatadi.

Jumladan, O. S. Axmanovanning “Lingvistik terminlar lug'ati” yoki A. P. Hojievning “Lingvistik terminlarning qisqacha lug'ati” ni ko'zdan kechirish orqali ham bu masalaga oydinlik kiritish mumkin.

Xususan, O.S. Axmanova lug'atida “sotsialingvistika” termini “ijtimoiy lingvistika” “tilshunoslikning ijtimoiyligi” deb atalishi asosida quydagicha ma'no kelib chiqadi. Birinchidan, tilning umuminsoniy munosabatlardagi o'rni, til va jamiyat o'rtasidagi xususiyatlarning o'zaro bog'liqligini o'rganish tadbiri etilsa, ikkinchidan, tilshunoslikning ijtimoiy munosabatlardagi turli xil vazifaviy xususiyati va aloqadorligi (masalan: ijtimoiy dialekt, hududiy dialektlar, argo va jargonlar va hokazo). Ikkinchi vaziyatda ijtimoiy dialektlarning ijtimoiy til mohiyatlarini belgilovchi xususiyatlari faqat ijtimoiy dialekt sifatida emas (professional nutq, koyni va h.k) tarzda tushuniladi. Ko'rinadiki, sotsiolingvistikaning asosiy muammosi “til va jamiyat” o'rtasidagi munosabatlarni

o`rganishdan iboratdir. Shunday ekan, til va jamiyat munosabatlari o`rtasidagi bu bog`liqlik til va jamiyat taraqqiyotining uzviy ko`rinishidir.

Tilshunoslarning ba`zilari sotsiolingvistikaning ob`yektini til tizimining jamiyatga moslashuvi ekanligini ta`kidlashsa, boshqalari tilning qo`llanilish jarayonidagi vujudga keluvchi holatlar deb ta`kidlashadi. Ikkala holatda ham jamiyatdagi ijtimoiy o`zgarishlar natijasida insonlarning tildan foydalanishlarida o`zgarishlar sodir bo`lishi sotsiolingvistikaning eng asosiy bo`g`ini ekanligi nazarda tutilgan. Sotsiolingvistikaning predmeti borasida ham turli qarashlar mavjud bo`lib, ularning birida sotsiolingvistikaning predmeti inson va jamiyat deya qaralsa,⁶ boshqasida esa, til va millat o`rtasida vujudga keluvchi ijtimoiy ta`sirga ega holatlardir deya ta`riflanadi. Fikrimizcha, til va millat munosabatlari sotsiolingvistikada asosiy o`rganilish sohasi hisoblanadi va tildagi sotsiolingvistik hususiyatlarni ayni shu jabhada ko`proq kuzatishimiz mumkin.

70-80 yillarda ijtimoiy tilshunoslikning tekshirilish ob`ekti ancha kengaydi va mustahkamlanib bordi. Bunda asosan quyidagi masalalar kun tartibidan o`rin oldi:

- a) umumiy masalalar;
- b) tillar aloqasi masalasi;
- v) til uyushmalari va ularni rivojlantirish;
- g) tilning ijtimoiy va hududiy masalalari.

Qo`shimcha qilib aytish joizki, bu borada turli madaniyatga mansub insonlar o`rtasidagi muloqot jarayoniga ta`sir etuvchi ijtimoiy omillar ham muhim sanaladi. Chunki, bu jarayon natijasida vujudga keladigan tushunmovchiliklarni hal etish fanning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Har qanday tildagi sotsiolingvistik o`ziga hoslik muloqot davomida yuzaga keladi va aniqlanadi. Muloqot tushunchasi psixologiyaga dahldor bo`lsada, sotsiolingvistikada ham muhim ahamiyatga ega.

Muloqot – ikki va undan ortiq shaxs (kommunikant) o`rtasida sodir bo`ladigan axborot almashinuvi jarayoni hisoblanadi. Til vositasida amalga

⁶ Universalnaya nauchno- populyarnaya onlayn ensiklopediya“ Krugosvet” st 241

oshadigan muloqotni o'rgatish jarayonida uning maqsadi (xabar berish, ko'ndirish, so'rash va hakazo), predmeti (mavzusi, nima haqidaligi), vaqti va kimga qaratilganligi (sharoiti) kabi tushunchalar farqlanadi. O'quvchilarga muloqot boshlashdan oldin kim bilan suhbatlashishi, nima haqida gapirishi, muloqot qayerda va qachon bo'lishi va undan ko'zlangan maqsadni aniqlab olish kerakligi o'rgatiladi. Shaxs (kommunikant)lar o'rtasidagi muloqot jarayonida ular bajaradigan rollardan tashqari, suhbat o'tkaziladigan joy va vaqti kabilar muloqot sharoiti hisoblanib, unga turli darajada ta'sir ko'rsatadi.


Odamlar o'z faoliyati va kundalik turmush tarzida boshqalar bilan nutq vositasida aloqada bo'ladi. Bu jarayonda bilimlarning ko'p qismi til orqali egallanadi.

Demak, nutqni – insonlar o'rtasidagi fikrlarni ifodalash vositasi, til vositasida aloqa bog'lash shakli – “gaplashish” jarayoni deyish mumkin. Demak, muloqot ikki kommunikantning bir- biri bilan axborot almashinishi, ular muloqot orqali o'z fikrlarini ifodalashidir. Bu esa sotsiolingvistikada o'rganilish predmeti hisoblanadi. Aynan muloqot vaqtidagi so'zlovchining ijtimoiy statusiga ko'ra so'z tanlashi va uni qanday ishlatishi sotsiolingvistikaning ahamiyatli jihati hisoblanadi

Sotsiolingvistika ijtimoiy hayotning tilga bo'lgan har qanday ta'sirini madaniy normalar, til kontekstlari va sotsiolingvistik predmetlarni o'z ichiga olgan holda o'rganadi. Bu holatda sotsiolingvistikani til sotsiologiyasidan farqlash lozim chunki, til sotsiologiyasi tilni ijtimoiy hayotga ta'siriga ahamiyat qaratsa, sotsiolingvistika buning aksi⁷, ya'ni til sotsiologiyasi va sotsiolingvistika o'rtasida ko'plab o'xshashliklar mavjud, ikkisi ham millat va til doirasida ish olib borishini, ikkisi ham munosabat va oqibatlarga tayanishini kuzatish mumkin. Til sotsiologiyasi biror millatga turli hil sabablar, boshqa millatning bosib olishi yoki ko'pmillatli xalqda biror tilning ustunligi natijasida kirib kelgan tilning millat madaniyati, dunyoqarashi va ona tiliga bo'lgan ta'siri natijalari va hususiyatlarini ko'rib chiqsa, sotsiolingvistikada ayni shu jarayonning aksi, ijtimoiy hayotning

⁷ John J. Gumpes “Studying language, culture, and society: sociolinguistics or linguistic anthropology?” 2008.532-545

ya'ni jamiyat vakillarining tilga bo'lgan ta'siri o'rganiladi. Sotsiolingvistikada asosan horijiy tilda namoyon bo'ladigan tildan foydalanayotgan millatning milliy hususiyatlari, o'ziga hosliklari ahamiyatga ega. Sotsiolingvistika tildan foydalanayotgan millat va horijiy til o'rtasidagi madaniy, ilmiy munosabatlar, o'xshashlik va qarama-qarshiliklar majmui deb izohlashimiz mumkin.



(1-Diagramma)

Diagrammada aks ettirilgan ikki shardan birini horijiy til, birini milliy til deb olsak, ikki shar o'rtasidagi bo'lak, kesishuvni - sotsiolingvistika deb qabul qilishimiz mumkin.

Sotsiolingvistika til antropologiyasiga yaqin va bir vaqtda rivojlangan.⁸ Sotsiolingvistika jamiyat Sotsiolingvistikaning asosiy maqsadi bu uning ijtimoiy qatlam vakillarining tildan foydalanishlari va ularning turli hilligi va o'ziga hosliklarini o'rganish.

Hozirda, sotsiolingvistikaning predmeti va maqsadi aniq, shuning uchun ham, izlanuvchilar uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatiga ko'proq e'tibor qaratishmoqda. Sotsiolingvistikaning ahamiyatiga nazar tashlashdan avval sotsiolingvistikada mavjud bo'lgan "internal" ya'ni ichki, va "external" tashqi atamalariga e'tibor qaratishimiz lozim. Agar jamiyat millati va davlatning o'z tilidan foydalansa bu ichki til, agar jamiyat o'z ona tilidan tashqari ikkinchi va

⁸ John J. Gumperz and Jenny Cook-Gumperz, "Studying language, culture, and society: Sociolinguistics or linguistic anthropology?". *Journal of Sociolinguistics* 12(4), 2008: 532-545.

uchinchi tillardan ham foydalansa bu tashqi til hisoblanadi. Masalan, ingliz tili yoki rus tili bizga tashqi til, o'zbek tili esa ichki til hisoblanadi. Sotsiolingvistika asosan millatga nisbatan til tashqi bo'lgan hollarda ahamiyatlidir, chunki, ona tili bo'lmagan horijiy tilga jamiyatning tilga nisbatan ta'siri yuqoriroq bo'ladi. Sotsiolingvistikaning ahamiyati shundaki, jamiyatning tildan to'g'ri va o'rinli foydalanishini o'rgatadi, bu esa juda muhim. Misol tariqasida ingliz tilini olaylik, birinchi til sifatida juda ko'p davlatlarda rasmiy til hisoblanadi, shuningdek, jahon tili sifatida butun dunyo bo'ylab o'rganilmoqda. Ammo, shuni aytish joizki, hamma jamiyatda ham ingliz tili bir hil ko'rinishga ega emas. Chunki, tildan jamiyat o'z ijtimoiy holatiga ko'ra turlicha foydalansa, bundan tashqari har bir mamlakat tashqi tilni o'ziga hos tarzda o'rganadi.

Tilshunoslikning boshqa bo'limlaridagi singari sotsiolingvistikaning ham, o'z atamaları mavjud. Masalan: til guruhi, til holati, ijtimoiy- kommunikativ tizim, ijtimoiy guruh, bilingvizm, diglossiya, ijtimoiy kod, til siyosati va boshqalar. Bulardan eng muhimlarining ma'nolarini ko'rib chiqamiz.

Til guruhi - ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ruhiy bir- biriga yaqin bo'lgan insonlar guruhi, ya'ni ular tildan bir hil normalar asosida foydalanishadi. Bunga misol tariqasida bir oila vakillarini tushunsak bo'ladi, chunki ular bir- birini juda tez tushunishadi.

Til kodi – psixologik jarayon hisoblanadi. Bu kodlarni tushunishda, qabul qilishda turli ta'sirlar mavjud, masalan: shovqin, tilni, madaniyatni bilmaslik, Shuningdek, ma'lum guruh tamonidan ishlatiladigan va shu guruhga ma'lum bo'lgan so'zlashuv. Bunda terminlar, dialekt asosiy rol o'ynaydi. Masalan, shifokorlargagina tushunarli bo'lgan muloqot, yoki faqat bir til guruhigina ishlatadigan sheva.

Bilingvizm - ikki yoki undan ortiq tildan foydalana olishlik. Masalan: o'zbek tilidan tashqari rus, ingliz tillarini bilish va foydalana olish.

Intenferensiya - bilingvistlarda tillarning bir-biriga grammatik, semantik, fonetik ta'siri. Masalan: ingliz tili va nemis tilidan foydalanuvchilarda

so'zlovchida fonetik ta'sir ko'proq kuzatiladi.⁹ Ya'ni, nemis tilida so'zlardagi harflarning to'liq o'qilishi, yoki talaffuzdagi o'ziga hoslik, ingliz tilida so'zlashganda ham namoyon bo'lishi.

Sotsiolingvistikaning muhim qirralaridan biri - sotsiolingvistik predmetlar hisoblanadi. Ya'ni, maqollar, qo'shiqlar, she'r, hikoya, ertak shu kabi millat ruhiyatini o'zida namoyon qiladigan folklor vositalari, shuningdek, millatga hos bo'lgan iboralar, slang, jargon, aforizmlar shular jumlasidandir. Ularning sotsiolingvistikada muhim hisoblanishiga sabab, ular tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniyati va dunyoqarashini o'zida aks ettiradi. Folklor vositalari faqat bir millatga hos bo'lgan ruhiyatni namoyon eta olishi kuzatiladi. Horijiy til o'rganuvchi tili o'rganilayotgan mamlakatning maqol, iboralarni o'zlashtirmasa yoki ishlatmasa uning nutqida yasamalik va notabiiylik aks etib qoladi.

Ko'rib turganimizdek, Sotsiolingvistik ko'rinishlar tilni tubdan o'zgartirmaydi balki uni yanada boyitadi, qo'llanilishini osonlashtiradi va optimallashtiradi. Bu borada sotsiolingvistikaning makro va mikrosotsiolingvistika yo'nalishlari muhim ahamiyatga ega.

I. 2. Sotsiolingvistik ijtimoiy guruhlar haqida umumiy tushuncha

Makrosotsiolingvistika ijtimoiy faktorlarni o'zida jamlagan tildagi munosabat va voqeliklarni ko'rib chiqadi. Makrosotsiolingvistika keng ko'lamli ijtimoiy guruh ichida ro'y beruvchi til va jamiyatga taalluqli bo'lgan vaziyatlarni o'rganuvchi sotsiolingvistikaning muhim yo'nalishi.

Makrosotsiolingvistika to'g'risida tilshunoslarning ko'plab fikrlarini uchratishimiz mumkin. Ulardan biri shunday deydi: “ Makrosotsiolingvistika bir davlat miqyosidagi (jins, yosh, ma'lumot) katta ijtimoiy guruhlar ichidagi tilni ishlatishdagi sotsiolingvistik o'ziga hosliklarga e'tibor qaratadi. Tilshunolar asosan aynan shu yo'nalishda uchraydigan tilning o'ziga hosligi, til bilan bog'liq aloqalar (madaniyatlararo), bu holatdagi muammoli vaziyatlar to'g'risidagi ko'proq ilmiy izlanishlar olib borishgan.”¹⁰

⁹ Bell R. Sotsiolingvistika: per. S angl. Moskva 1980.

¹⁰ Belikov V. I, Krisin L.P “ Sotsiolingvistika” M. RosGos gumanit 2001. st 240.

Demak, makrosotsiologiyada ayni jamiyat miqyosidagi katta guruhlar muloqot jarayoni asosiy o'rinni egallaydi va shu jarayon davomidagi til va nutq hususiyatlari o'rganiladi. Qo'shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, sotsiologiyada ijtimoiy guruhlar asosiy o'rinni egallaydi. Chunki, tildan foydalanuvchilar ijtimoiy qatlamning qaysidir guruhiga taalluqli bo'lishadi.

Har qanday zamonaviy kishilik jamiyatida jins, yosh, joy, ma'lumot, ijtimoiy sinf hususiyatlariga ko'ra turli guruhlar mavjud shu bilan birga har bir guruhning sharoit va maqsadga ko'ra o'ziga hos jihatlari farqlanadi shunga ko'ra ularning tildan foydalanish hususiyatlari ham turlicha. Ayni shu holatga ko'ra, ijtimoiy til ko'rinishlari shakllangan. Shuning uchun til ham ijtimoiy hayot o'zgargani sari o'zgarib boradi va tarixiy ko'rinishidan bir muncha farq qiladi.¹¹

Insonlarni bir maqsad yo'lida birlashishlarini aytib o'tdik, ammo ijtimoiy guruhlar bir muncha tushunishga qiyinroq tushuncha, chunki, ular nafaqat rasmiy norasmiy jihatdan birlashgan balki, ijtimoiy qarashlari yaqin bo'lgan insonlardan tashkil topadilar. Ijtimoiy guruhlar bir birlari bilan o'zaro guruh tuzmaydilar ular bir guruhga sotsial nuqtai nazardan taalluqli bo'ladilar. Ular tabiiy ravishda birlashganlar.

Shuningdek, mikrosotsiologiyada uncha katta bo'lmagan guruhlar (oila, kasbdosh, mahalladosh) o'rtasidagi til bilan bog'liq munosabatlarni sotsiologiyada jihatdan tahlil qiladi. Mikrosotsiologiyada asosan individual keng ko'lamga ega bo'lmagan nutq ko'rinishlari va kichik guruhlarining norasmiy til ko'rinishlari ustida ish olib boradi.

Mikrosotsiologiyada asosida inson va uning tildan foydalanish uslubi, shuningdek, oila, maktab, ish kabi ijtimoiy guruhlarda jamlangan insonlarning shu guruhdagi muloqot tarzi o'rganiladi va shu muloqot ko'rinishlari islox etiladi.¹²

Aynan shu borada tilshunoslardan biri V. L. Kolisnihenko shunday fikrlaydi: "Ijtimoiy guruhlar ko'lamiga ko'ra katta va kichik bo'lishi mumkin.

¹¹ "Yazik i kultura obsheniya". www.litres.ru. Razdel 4

¹² "Slovar sotsiologiyadagi terminov". V. A. Kojemyakina, N. V. Kolesnik, T. B. Kryuchkova, O. S. Parfyonova, Yu. V. Trushkova, M. 2006. 113- 130 st

Masalan, millat, din, yosh va jins va ijtimoiy sinf nuqtai nazaridan guruhlar katta va keng ko'lamli hisoblansa, qarindoshlik yoki kasbga ko'ra kichik guruhlar sanaladi. Ular o'z o'rnida katta guruhlar ichiga ham kiritilishlari, har qanday inson biror bir yoki bir nechta ijtimoiy guruhga taalluqli bo'lishi, ijtimoiy guruhlar birlamchi va ikkilamchi guruhlariga bo'lishimiz ham mumkin. Birlamchi guruhlar bir biri bilan bevosita bog'langan va muqim guruhlar sanaladi.”

Birlamchi va ikkilamchi ijtimoiy guruhlar termini fanga Ch. X. Kuli olib kirgan bo'lib, uning fikricha birlamchi guruhlar to'g'ridan to'g'ri shaxsiy munosabatlarga qurilgan, chuqurroq ildizga va muqim aloqalarga asoslangan guruhlar hisoblanadi. Misol qilib keltirsak, millat, oila, jins kabi hususiyatlarga asoslangan guruhlar birlamchi chunki, biz bu guruhga doimiy a'zomiz. Ikkilamchi guruhlar din, yosh, kasb kabilar. Biz dinimizni, kasbimizni o'zgartirishimiz mumkin, yoshimiz o'tgan sari boshqa guruh vakiliga aylanib boramiz.

Guruhlarni Deckert Sharon va Caroline Vikers nutqiy birlashmalar deb ham ataganlar. Ularning fikricha: “Speech communities can be members of a profession with a specialized [jargon](#), distinct social groups like high school students or hip hop fans, or even tight-knit groups like [families](#) and friends. Members of speech communities will often develop [slang](#) or jargon to serve the group's special purposes and priorities”¹³. Ya'ni nutqiy birlashmalar biror umumiy jargonlariga ega bo'lgan kasbdoshlar, hip-hop ixlosmandlari yoki yuqori sinf o'quvchilari, shuningdek, oilaviy do'stlar bo'lishlari mumkin. Nutqiy birlashmalar a'zolari guruhning maqsadi va yuksalishida turli slanglar va jargonlardan foydalanishadi.

Aytish joizki, til dialektlardan tashqari, aholi o'rtasida, ijtimoiy mavqe', sharoit va yashash tarziga ko'ra (qishloq va shahar aholisi, oddiy ishchi va ish

¹³ Deckert, Sharon K. and Caroline H. Vikers. (2011). An Introduction to Sociolinguistics: Society and Identity. Page 59


beruvchi, olimlar nutqi) keng qo'llanuvchi turli hil tildan foydalanish shakllari ham mavjud.¹⁴

Ijtimoiy guruhlar nafaqat asosiy keltirilgan prinsiplarga ko'ra balki, madaniyati, turmush tarzi, tildan foydalanish jihatlari bilan ham bir biridan farq qiladilar. Agar, inson bir nechta guruh vakili bo'lsa, unda sotsiolingvistik kompetensiyasi oshib boraveradi. Ya'ni, u har bir guruh kodini yaxshi anglay oladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, har bir inson bir biri bilan muloqot qilish orqali o'z qarash va fikrlarini ifoda eta oladi (imo-ishora orqali muomala qilish ham muloqot hisoblanadi.) Shunday ekan, yuqoridagi prinsiplarga asoslangan guruhlar nutq madaniyatiga ijtimoiy qatlam ta'siri seziladi va ularning tildan foydalanish va so'z tanlash hususiyatlari turlicha bo'ladi.

Makrosotsiolingvistikaning asosiy yo'nalishi bo'lgan yosh nuqtai nazaridan ijtimoiy guruh bolalar, o'smirlar, o'rta yoshlilar, keksalar kabi kichik guruhlarga bo'linadilar. Ular har tamonlama bir birlaridan farq qiladilar, dunyoqarashi va qiziqishlari ham turlicha. Albatta tildan ham turlicha foydalanadilar. Biror maqsadni yoki fikrni ifodalashda har xil so'zlarni ishlatishadi.

Tilshunos olim J.Uellsning LPD-2000 leksikografik lug'atining sotsiolingvistik ijtimoiy guruhlarining tildan foydalanish holatlarini tahlil qilishda ahamiyati yuqori, chunki unda avvalgi tilshunos olimlarning lug'atlaridan farqli ravishda, barcha yosh davrlarining ingliz tilidagi talaffuz holatlari batafsil yoritilgan. Undan avvalgi lug'atlar mualliflari katta va o'rta yoshlilar talaffuzining o'ziga hosliklariga e'tibor qaratib, o'smirlar va bolalar nutqini o'zgarib turuvchi deya ahamiyatsiz qoldirgan bo'lsalar, J. Uells har bir davr vakilining ingliz tilidagi so'zlashish jarayonini muhim deb topgan. Tilshunos barcha yosh davrlari nutqini tahlil qilish davomida ko'plab sxemalar va jadvallar ishlab chiqdi, ko'p qo'llanuvchi yoki foydalanishda farqli jihatlarga ega so'zlarni ham qo'llanish darajasini bayon eta olganini ko'rishimiz mumkin.

¹⁴ Mechkovskaya N. B. Sotsialnaya lingvistika. M. :Aspekt-press, 2000



Lug'atda shuningdek, zamonaviy yoki eskirib qolgan, ijtimoiy guruhlar har birining uslubiga hos bo'lgan so'zlar jadvallari ham keltirilgan.

Gender va sotsiolingvistik munosabatlar termini, sotsiolingvistik va madaniy tamondan jinslarning tildan foydalanishlariga nisbatan ishlatiladi. Genderlar tildan hilma hil foydalanuvchilarning eng yorqin namunasidir.

Tildan ijtimoiy qatlamning asosiy bo'lagi bo'lgan jins faktori, ayollar va erkaklarning qanday foydalanishi haqida juda ko'p izlanishlar mavjud. Bu borada turli tortishuvlar ham yuzaga kelgan bo'lib, har biri o'z fikriga ega.

Aytishimiz mumkinki, ayollar har bir ijtimoiy qatlam vakilidirlar, ular har biri o'z individual til uslubiga ega bo'lishlari mumkin. Bu borada, tilshunoslar shunday fikrlaydi: "Har bir shaxsning o'z til uslubi mavjud, ammo jins nuqtai nazaridan har biri umumiy o'ziga hoslik va o'xshashlik hususiyatiga

egadir. O'ziga hos uslublar guruh ichida bir-biridan ajralib tursada, ammo umumiy holatda aytish mumkinki, erkaklar va ayollar til uslublari bir-biridan farq qiladi"¹⁵.

Patrisia Nikols o'zining tilshunoslik bo'yicha yozgan maqolasida :
 "Ayollar asosan standart va rasmiy til shaklini ko'proq qo'llashadi, bu kasb holatidan ham kelib chiqadi, chunki, ayollar ko'pincha rasmiy til qo'llanilishi zarur bo'lgan, ya'ni o'qituvchilik, shifokorlik, kotibalik kabi kasblarda ishlashadi va shuning uchun til uslublari standartlashgan. Erkaklar til uslubida esa asosan nostandart ko'cha uslubi ya'ni jargonlar va slanglar ko'proq kuzatiladi. Ammo, aytish mumkinki, ayollarga nisbatan erkaklar so'zlashuvida aniqlik yaqqolroq ko'rinadi."¹⁶ Tildan foydalanish etikasiga albatta yuqorida aytib o'tganimizdek, kasb, muhit va yosh holatlari yaqqol o'z ta'sirini o'tkazadi.

Kuzatadigan bo'lsak, ayollar o'z fikrlarini qanchalik chiroyli yetkazib berish va taassurotga qaratsa, erkaklar natijani tezroq namoyon qilishga shoshiladilar. Bir fikrni ayollar 15 ta so'z bilan ifodalashsa, erkaklar 7 ta so'z bilan kifoyalanadilar. Bir hil vaziyat haqidagi fikr, savollar tabiiyki, ayollar tomonidan ko'proq va uzoqroq bo'ladi.¹⁷

Sotsial guruhlardan yana biri bu ma'lumot, ijtimoiy holatiga ko'ra yuqori va quyi sinflardir. Tildan foydalanishda jamiyatni yuqori va quyi sinflarga bo'lsak yuqori sinf vakillari asosan o'qimishli, o'z kasbi va ma'lum sohada yutuqlarga ega bo'lgan shaxslar hisoblansa, quyi sinf asosan oddiy aholi hisoblanadi. Bu ikki sinf vakillari bir millatga va joyga dahldor bo'lsalarda ularning biri, ya'ni yuqori sinf asosan standart ya'ni badiiy tildan

¹⁵ Aries, Elizabeth .1997 Women and Men Talking: Are They Worlds Apart? In Women, Men, and Gender, edited by Mary Roth Walsh, pp.91. Yale University Press, New Haven.

¹⁶ Nichols, Patricia C .1983 Linguistic Options and Choices for Black Women in the Rural South. In Language, Gender and Society, edited by Thorne, Kramarae, and Henley, pp.54-68. Newberry House Publications, Inc., Rowley.

¹⁷ Edelsky, Carol .1993 Who's Got the Floor? In Gender and Conversational Interaction, edited by Deborah Tannen, pp.189-230. Oxford University Press, New York.

foydalanishadi, quyi sinf vakillari esa norasmiy tilni afzal bilishadi. Misol uchun:

Bristolian Dialect (lower ... **Standard English** (higher class)
class)

I ain't done nothing ... I haven't done anything

I done it yesterday ... I did it yesterday

It weren't me that done it ... I didn't do it

Shuningdek, muloqotda ierarxik holat ham mavjud bo'lib, so'zlashuvda bir tarafning mansab, ijtimoiy holat, yosh yuzasidan hurmat kabilarga asoslangan holda ustunligi tushuniladi. Bu borada shunday fikrni keltirish mumkin: In any contact situation, there is a power dynamic, be it a teacher-student or employee-customer situation, this power dynamic results in a hierarchical differentiation between languages.¹⁸ Ya'ni, har qanday vaziyatdagi muloqotda ham, o'qituvchi-o'quvchi, ish beruvchi-ishchi o'rtasida ustunlik, til nuqtai nazaridan mavjud bo'ladi.

Bir til bir nechta mamlakatning davlat tili bo'lishi mumkin, ammo har biri uni turli ko'rinishlarda qo'llashi ham kuzatiladi.

Standart til ko'rinishlari har bir mamlakat qo'llashi bo'yicha turlicha bo'lishi ya'ni, har bir jamiyat tilni o'z mamlakat madaniyati, dunyoqarashi, turmush tarziga ko'ra o'ziga moslashtirishi yoki optimallashtirishi mumkin. Shunga ko'ra bir til turli ko'rinishlarga ega bo'lishi kuzatiladi. Misol uchun: ingliz tilini Amerika/ Britaniya/ Kanada/ Avstraliya, Nemis tilini Avstriya/ Germaniya/ Shvetsiya, Serb tilini Bosniya/ Xorvatiya/ Chernogoriya/ Serbiya aholisi turlicha ishlatishadi¹⁹. O'rganayotganimiz ingliz tili halqaro muloqot tili sifatida lug'at boyligi keng tovushlar talaffuzi o'ziga hos va assimilyatsiya

¹⁸ Deckert, Sharon K. and Caroline H. Vikers. (2011). An Introduction to Sociolinguistics: Society and Identity. Page 44

¹⁹ Stewart William (1968) "A Sociolinguistic Typology for describing national multilingualism" The Hague, Paris. Mouton. p 534.

darajasi yuqori til bo'lib, faqat lug'at boyligida Yevropa tillaridagina emas, balki butun dunyo xalqlari tillaridan o'zlashgan so'zlar mavjud.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha tarzda quyidagi misollarni keltirmoqchimiz.

1) Yosh guruhlari

“ allow it, don't bother ” o'smirlar “ unut hammasini, tashvishlanma”

Yoshi kattalar “ forget it, don't think about”

2) Genderlar

ayollar :“What a stupid” } “ Buncha ham axmoq bo'lmasa”
 erkaklar:“What a damn” }

3) kasb

“ My axe is the best” musiqachi “Mening gitaram eng zo'ri”

“ I must buy a guitar” standart “ Men gitara sotib olishim kerak”

4) oila

“ Pa, wait me please” oila } ” Dada, meni kutib turing”
 “ Father, wait me please” standart. }

Har bir mamlakat biror tildan foydalanar ekan, u hoh ichki, hoh tashqi til bo'lsin uni o'z turmush tarzi va madaniyatiga yaqinlashtirgan holda o'rganadi va foydalanadi.

Bunday holatlarni yaxshi anglash va to'g'ri tadbiiq etish uchun esa, sotsiolingvistik kompetensiya yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim.

I. 3. Sotsiolingvistik kompetensiya va uning chet til ta'lmida tutgan o'rni

Yuqorida aytib o'tganimizdek, sotsiolingvistik kompetensiya sotsiolingvistikaning muhim omili hisoblanib, horijiy tilni o'rganish va undan to'g'ri foydalanishning asosi bo'lib, hizmat qiladi. Bu paragrafda sotsiolingvistik kompetensiya haqida to'liq ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Aytish joizki, mamlakatimizda horijiy tillarni o'rganishga katta ahamiyat qaratilmoqda. O'quvchi va talabalar uzluksiz ta'lim jarayonida horijiy tillarni o'rganish davomida til materiali va nutq faoliyati turlariga oid bilim-ko'nikma

va malakalarga ega bo'lmoqdalar. Horijiy tillar ichida ingliz tiliga bo'lgan talab va ehtiyoj kundan- kunga ortib bormoqda. Yurtimiz maktablari, kasb-hunar kollejlari, Akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslariga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Biz ushbu ta'lim maskanlarida horijiy til o'rganish davomida sotsiolingvistikning o'rnini ko'zdan kechirar ekanmiz, bu borada sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish uchun uzliksiz ta'lim tizimida ingliz tili darsliklarida nafaqat til materialiga oid ma'lumotlar(grammatika, fonetika) bilan, shuningdek, tili o'rganilayotgan mamlakatlar madaniyati va milliy madaniyat , urf-odatlar va bayramlari haqidagi ma'lumotlarning keltirilishi o'quvchi va talabalarning ingliz tilidagi sotsiolingvistik kompetensiyalarining shakllanishiga turtki berishiga guvoh bo'lamiz.

Shu borada “*Kompetensiya*” tushunchasi haqida ham to'xtalsak. Bu hususida, turli ma'lumotlarni keltirishimiz mumkin. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida *kompetensiya*- (lotincha “*competo*” erishayapman, munosibman, loyiqman) u yoki, bu sohadagi bilimlar, tajriba ²⁰ ma'nolarini beruvchi so'z sifatida uchratishimiz mumkin, yana bir manbaada “*kompetensiya*” - (*kompetere* – loyiq) yuqori tajriba asnosida bilimni to'g'ri yo'naltirish ” deya keltirilgan. Manbaalarga asoslangan holda “ *kompetensiya* “ – layoqat deya ta'riflashimiz mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, sotsiolingvistik kompetensiya va uning qay darajada zarurligi to'g'risida savol tug'iladi.

Bu borada tilshunoslar quyidagicha ta'rif beradilar: “Sotsiolingvistik kompetensiya- so'zlarni kontekstga ko'ra to'g'ri tanlash va qo'llash mahorati”²¹, “Sotsiolingvistik kompetensiya - har kimga aynan unga munosib muomalani

²⁰ O'zME, 1- jild, toshkent 2000.

²¹ Ye. N. Solovova “ Metodika obucheniya inostrannim yazikam” (bazoviy kurs leksiy) M. Prosvesheniye. 2002. st 238.

qila olish, qachon sukut saqlash, qachon gapirish, qachon maqtash yoki uzr so'rashning ma'qul vaqtini bilish ko'nikmasiga ega bo'lish demakdir"²²

Bundan ko'rinib turibdiki, til ta'lim jarayonida tili o'rganilayotgan mamlakatlar va milliy madaniyatni solishtirish ular orasidagi o'xshash va o'xshamaydigan tamonlarni aniqlashga, kommunikantlar madaniyatlararo muloqotga kirishganda umumiy hulosalarga tez kelishlariga hizmat qilar ekan. Shundan kelib chiqqan holda, Sotsiolingvistik kompetensiya - aniq bir millat til madaniyatining normasi, ijtimoiy mavqeiga mos keluvchi muloqot maqsadini tushunarli va aniq ifodalay olish layoqatidir deya e'trof eta olamiz.

Horijiy til bilish, hozirgi zamon talabi ekanligi haqida hulosalar, maqolalar chop etilgan, chet tili o'zlashtirishda sotsiolingvistik kompetensiyasining o'rni haqida ilmiy ishlar kam olib borilgan. Chet tilini o'rganish va foydalanish mobaynida sotsiolingvistikaning ahamiyati yuqori ekanligi to'g'risida ilmiy farazlar surulmagan.

“Horijiy tilni sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirmasdan o'rganib bo'lmaydi” – degan fikrdan yiroqmiz, ammo chet tilini puxta o'zlashtirish va o'rinli foydalanish uchun sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish lozim deb hisoblaymiz.

Horijiy tillarni o'rgatish metodikasining asosini avvalgi paragraflarda ta'kidlaganimizdek, til materialiga oid (talaffuzni, grammatik qoidalar va o'quvchining leksik lug'at boyligini o'stirish) ko'nikma va malakalarini rivojlantirish vazifalari tashkil etadi. Bu esa o'quvchining chet tilidagi nazariy bilimlarini mustahkamlovchi vositalar bo'lib hizmat qiladi.

Tilshunoslarning yuqoridagi masala bo'yicha qarashlari quyidagicha:

“Hozirda horijiy tillarni bilish va unda erkin muloqot qila olish layoqati professional mahorat hisoblanib kelinmoqda. Madaniyatlararo faoliyat davomida horijiy tilni faqat nazariy, ya'ni leksik- grammatik jihatdan egallaganlik yetarli emasligi bu jarayonda asos egallagan bilimni amalda to'g'ri

²² David H. Broersma, Ph. D. Institute for Cross Cultural Training
Wheaton College, Wheaton, the article “How do I learn sociolinguistic competence?”

qo'llay olgan, undan joy va ijtimoiy muhitga mos tarzda foydalanayotgan shaxsning sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlangan deyish mumkin. Bu esa, suhbatdosh bilan bo'lgan muloqotdagi ishonch va erkinlikni ta'minlaydi.”²³

Shu nuqtai nazardan : “ Sotsiolingvistik kompetensiya - izga soluvchi jarayon hisoblanadi, so'zlovchining fikrlarini bir chiziqqa teradi va uning so'z tanlashdagi muhim qirralarini ochib beradigan jarayon deyishimiz, uni til o'rganishni boshlash bilanoq rivojlantirishga kirishish kerak, deya ta'kidlovchi fikrlarga qo'shilishimiz mumkin.”²⁴

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'qituvchilar ingliz tilini til materiali (grammatik, fonetik, leksik) ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar madaniyati bilan tanishtirish va ularning shu mamlakat vakillari bilan muloqotga kirishishning o'ziga hosliklarini o'rgatishga kamroq ahamiyat qaratishmoqda, bu esa sotsiolingvistik muammolarga olib kelishga sabab bo'lmoqda. Bunday qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyalarini ingliz mamlakatlarining urf-odatlarini va til xazinasini (maqol, metal, ibora, ertak, she'r, hikoya)ni boyitish, so'zlashuv uslublarini yaxshi o'rganish va tili o'rganilayotgan mamlakat vakillari bilan ko'proq so'zlashish yoki shu muhitni yaratish orqali rivojlantirish mumkin.²⁵ Tili o'rganilayotgan mamlakat xalq og'zaki ijodiga dahldor bo'lgan maqol, ertak, ibora, jargon yoki qo'shiqlarni darslarda qo'llash, shu mamlakat vakili bilan tez muloqotga kira olishga yordam beradi.


Quyidagi diagramma sotsiolingvistik kompetensiyaning muhim qismlarini ko'rsatib beradi. Ya'ni ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchi (esl- english

²³ V. L. Kolisnechenko “ Sotsiolingvisticheskiy aspekt v obuchenii angliyskogo yaziku na sovremennom etape “ nauchnaya statya. kolisnechenko@yandex.ru.st 2

²⁴ Berry, A. (1994). "Spanish and American Turn-Taking Styles: A Comparative Study." In Pragmatics & Language Learning Monograph Series, L. F. Bouton and Y. Kachru, (Eds.), 5, 180-190.

²⁵ David H. Broersma, Ph.D. Institute for Cross Cultural Training
Wheaton College, Wheaton, the article “how do I learn sociolinguistic competence?”

as a second language) shu qismlarni yaxshi o'rganishi va ahamiyat qaratishi lozim.



(2-diagramma)

Ko'rib chiqqanimizdek, har bir xalqning millati, dini va turmush tarziga ko'ra so'zlashuv madaniyati mavjud va bu har bir xalqda o'ziga hos, shuning uchun ham har bir tilning o'z sotsiolingvistik kompetensiyasi mavjud. Hattoki, ingliz tilining har hil til ko'rinishlarini uchratishimiz mumkin. Masalan, ingliz tilining Britaniya va Amerika variantlari mavjud bu ikki variant bir biridan nafaqat lug'aviy balki fonetik, grammatik jihatdan ham farq qiladi. Hattoki, so'zlashuv madaniyati ham turlicha.²⁶ Ba'zi bir ibora va maqollar bir hil shaklda bo'lishiga qaramay ingliz tilidan foydalanuvchi xalqlarda turlicha ma'no anglatishi, yoki bir hil ma'no ifodalashda turli iboralardan foydalanishlari mumkin. Quyida bu holatlarga misolar keltiramiz:

²⁶ [http://www.google.ru/the word combination differences between american and british english.](http://www.google.ru/the_word_combination_differences_between_american_and_british_english)

American English	British English
I am quite hungry-Men judayam ochman	I am quite hungry- Unchalik ochmasman
Merry Christmas	Happy Christmas
What's up?-nima gap?	What happens?-nima bo'ldi?
Half five- besh yarim (soat)	Half past five-besh yarim

(1-jadval)

Bu misollar faqat millat nuqtai nazaridan qaralganda, sotsiolingvistikada aytib o'tganimizdk ijtimoiy guruh tushunchasi ham mavjud, bunga ko'ra guruhlar yosh, jins, ijtimoiy holat prinsiplariga ko'ra bo'linadi. Bu borada ham sotsiolingvistik kompetensiya muhim ahamiyatga ega. Masalan: ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilarga so'zlarni o'rgatamiz, ularni aytilishi gaplardagi holatini o'rgatamiz, ammo bu so'zlardan ular qanday va qachon foydalanishlari kerakligi haqida kamroq ma'lumot beramiz. Mana shu holatda sotsiolingvistik muammolar kelib chiqadi. Har bir guruhga munosib muomala qila olish esa sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlanganligini ko'rsatadi.

Muloqotni to'g'ri tashkillash uchun sotsiolingvistik kompetensiya rivojlangan bo'lishi zarur deb aytib o'tdik, endi esa bunga o'rganish uchun nima zarur? - degan savol tug'iladi. Buning uchun chet tilidagi so'z va iboralarning lug'aviy o'ziga xosligi, ularning muloqot usuli va hususiyatiga ko'ra o'zgaruvchanligi, suhbatdoshga qanday ta'siri borligini o'rganish ma'qul hisoblanadi. O'z o'rnida bu jarayon nafaqat sotsiolingvistik balki til materiali (fonetik, leksik, grammatik)ga oid bilim va ko'nikmalar ham kerak bo'ladi. Masalan: Kichik yoshdagi qizchaga "what a plump, pretty girl" iborasini "bunchayam do'mboqqina, shirin qizcha ekan" sifatida qo'llasak, uni erkalatgan bo'lamiz ammo, ayni shu iborani balog'atga yetgan qizga nisbatan qo'llay olmaymiz chunki, bu unga nisbatan qo'pollik, hurmatsizlik sanaladi. Yoki "Hi guys "so'zi" "salom bolalar" deb tarjima qilingani bilan bu faqat do'stlar o'rtasidagina qo'llaniladi. Aynan shu salomlashishni o'qituvchi o'quvchilariga

nisbatan ishlata olmaydi, va holanki “Hello, children” frazasi ham “salom bolalar” deya tarjima qilinadi. Bu holat etiket qoidalariga mos kelmaydi kommunikativ subbordinatsiyaga zid holat hisblanadi. Shuningdek, biror tanishimiz bilan salomlashganimizda “Good morning” (Good afternoon, Good evening) yoki “morning” so’zini pastdan yuqoriga qaratilgan intonatsiya bilan aytamiz, lekin endi tanishayotgan insonga nisbatan huddi shu so’zni yuqoridan pastga intonatsiyasida qo’llaymiz aks holda, uning oldida sog’lom fikrlay olmaydigan inson qiyofasida gavdalanishimiz mumkin.

Til o’rganuvchilarning sotsiolingvistik kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqlash nuqtai nazaridan uchga bo’lishimiz mumkin. (1) past; (2) o’rta; (3) yuqori darajada.

Ta’lim jarayonida sotsiolingvistik kompetensiyasi past darajadagi til o’rganuvchi tili o’rganilayotgan mamlakat vakili bilan muloqot o’rnatganda ularning nutq faoliyati va til materialiga oid birlamchi muloqotga kirisha olmasliklari va shu bilan birga o’zini erkin his qila olmasligi mumkinligini ko’rsatadi.

Sotsiolingvistik kompetensiyasi o’rta darajada shakllangan til o’rganuvchi tili o’rganilayotgan mamlakat vakili bilan erkin muloqot qila oladi. Ularni to’liq tushunadi lekin, turli ijtimoiy guruh bilan ularga hos bo’lgan muloqotda oqsashini ko’rish mumkin.

Sotsiolingvistik kompetensiyasi yuqori darajada shakllangan inson tili o’rganilayotgan mamlakatda o’zini erkin his qiladi. Yuqoridagilarga qo’shimcha qilib aytish mumkinki, har bir tili o’rganilayotgan mamlakatning urf-odatlari turmush tarzi, millati va diniga ko’ra so’zlashuv madaniyati mavjud. Ingliz tilini o’rganishda nafaqat grammatika, fonetikanigina emas, balki so’zlashuv madaniyatini ham o’rganish lozim, bu bilan talaba o’zining ingliz tilidagi sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantiradi. Keyingi paragraflarda sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishga yordam beruvchi metodlarni ko’rib chiqamiz.


BIRINCHI BOB BO'YICHA HULOSALAR

Sotsiolingvistik kompetensiyaning rivojlanganligi uni holat va joyga ko'ra so'zni to'g'ri tanlay bilishi dedik, ammo aynan millatga hos bo'lgan hatti-harakatlar ham borki, ular ham suhbatdoshdan bilim va ko'nikmani talab etadi. Masalan: qo'lni chakkaga qo'yib uyoq buyoqqa aylantirsa, ko'p mamlakatlarda salbiy ya'ni "esing joyidami" degan ma'noni ifodalaydi, ammo shunday harakat Argentinada "men o'ylayapman" degan ma'noni bildiradi. Shuningdek hindlarda, turklarda boshni o'ngdan chapga irg'ash "ho'p" degan ma'noni anglatsa, boshqa mamlakatlarda bu "yo'q" deganini ifodalaydi. Bu esa yuqorida aytib o'tilganidek, sotsiolingvistikaning pragmatika bilan bo'lgan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, sotsiolingvistika tilshunoslikning eng ijtimoiy hayotga yaqin bo'lgan va muhim bo'lgan bo'limi hisoblanib, u nafaqat til hususiyatlarini balki, davr ruhiyati, millat madaniyati va tarixini ham o'zida aks ettira oladi. Sotsiolingvistikaning fan sifatida shakllanishiga tabiiy muhit sabab bo'lgan deb o'ylayman. Chunki, horijiy tillar yillar o'tgani sari optimallashtirishda, horijiy til o'rganish saviyasi va hajmi kundan-kunga kengayib, chuqurlashib bormoqda. Aytish mumkinki, sotsiolingvistik jarayonlar dunyo bo'ylab, tilshunoslar tamonidan o'rganilib kelinmoqda va izlanishlar olib borilmoqda.

Sotsiolingvistika bu - ijtimoiy hayotning tilga bo'lgan ta'sirini o'rganadi deb aytib o'tdik, ammo uni tilshunoslikning boshqa bo'limlari pragmatika, etnolingvistika, semantika bilan ham adashtirish mumkin. Chunki, ular ham millat va til tushunchalarini o'rganadi. Faqat sotsiolingvistikaning ulardan farqi aynan horijiy til me'yorlari yoki millat insonlarining o'ziga hosliklarinigina o'rganib qolmay, aynan horijiy tilga boshqa millatning madaniy, ijtimoiy, diniy ta'sirini o'rganadi. Sotsiolingvistikaning ob'ekti bu til, undagi o'zgarishlar, muammolar sotsiolingvistikaning muhim jihati hisoblanadi.

Sotsiolingvistika so'zlovchini horijiy tilga moslashtiradi, u bilan tanishtiradi shu bilan birgalikda, tildagi millatga hos bo'lgan jihatlarni namoyish etadi. Shuningdek, tili o'rganilayotgan mamlakat va til o'rganayotgan mamlakat o'rtasidagi o'xshash va farqli tamonlarining tilga bo'lgan ta'sirini ko'rsatib



Ya'ni sotsiolingvistika ikki mamlakat o'rtasida yuzaga keluvchi lingual holatlarni aks ettiradi. Yuqoridagi shakllar orqali shu vaziyatni ko'rsatmoqchiman, shaklan har hil ammo, rang jihatdan bir hil. Til nuqtai nazaridan olib qaralganda, bir mamlakatga horijiy til kirib kelishi bilan chet tilida mamlakatlarning turli jihatlari aks etib, horijiy tilda tub aholining ruhiyati ham ko'rina boshlaydi. Shuning uchun, til qanchalik dunyo bo'ylab keng tarqalgan bo'lsa, unda turli sotsiolingvistik hilma- hilliklar mavjud bo'ladi, bunday holatda bir til bir millat ruhiyatini aks ettira olmaydi. Shuning uchun ham jahon tillarida turli millatlarning aksini ko'rsa bo'ladi.

Aynan mana shu o'xshash va farqli tamonlarini to'g'ri anglash va ulardan to'g'ri foydalana olish sotsiolingvistik kompetensiya hisoblanadi. Sotsiolingvistik kompetensiya til o'rganuvchi talabaning qo'lidagi oltin kaliti desak ham bo'laveradi. Chunki, har qancha horijiy tilni mukammal bilmaylik, undan to'g'ri va o'rinli foydalana olish qiyin masala hisoblanadi. Horijiy tilda nafaqat ravon so'zlay olish yoki uni tushunish balki, savolga munosib javob bera olish yoki, vaziyatga to'g'ri baho berish va til egalari bilan erkin muloqotga kirish qobiliyatiga ega bo'lish ham kerak bo'ladi. Ayni shu holat so'zlovchining sotsiolingvistik kompetensiyasining darjasini belgilaydi.

Sotsiolingvistik kompetensiyani tilni boshlang'ich o'rgatish davridanoq rivojlantirib borish lozim. Ya'ni o'quvchi yoki talabada tilga moslashuvchanlikni o'stirish kerak. Bu bilan nima demoqchiman, ahamiyat

qaratsak, juda ko'p hollarda o'quvchilar o'zlarining horijiy til o'qituvchisining horijiy tildagi nutqini tez va oson tushunadilar. Agar ulardan biror bir boshqa o'qituvchi diktant yoki boshqa bir yozma ish oladigan bo'lsa, ular dovdirab qoladilar va o'qilayotgan matnni tushunishga qiynalayotganliklarini aytadilar. Bu nimadan darak, bu ularning lug'aviy so'z boyliklari bo'lsada, horijiy tilda erkin muloqotga kirisha olmasliklaridan va ularda sotsiolingvistik kompetensiya umuman rivojlanmayotganidan darak beradi. Yana shunga o'xshash holatlardan biri bu horijiy til o'rganayotgan o'quvchining bir ma'no anglatuvchi bitta so'z bilan kifoyalanishini olishimiz mumkin. Masalan, "hear" (eshitmoq) va "listen" (tinglamoq) so'zlarini oladigan bo'lsak, ko'p hollarda eshitmoq, tinglamoq fe'llari o'rtasida katta farq bo'lib, ular turli vaziyatlarda qo'llansada o'quvchilar har qanday eshitish bilan bog'liq bo'lgan gaplarda "listen" so'zini qo'llashadi.

Men uzoqdan tovush eshitayapman.

I am hear ----- to'g'ri.

I am listening ----- noto'g'ri

Sotsiolingvistik kompetensiyasi yuqori darajada rivojlangan inson nafaqat horijiy tilda so'zlaydi balki, ijtimoiy hayotga kirisha oladi. Aks holda turli tushunarsiz vaziyatlarga tushib qolishi mumkin.

Sotsiolingvisik kompetensiyani rivojlantirishning muhim shartlaridan yana biri bu sotsial til guruhlarini to'g'ri ajrata olishdir. Har bir chet tilini o'rganuvchi talaba ijtimoiy sinflar vakillarining muloqot madaniyati, so'z tanlash va foydalanish uslubi va nutq hususiyatlarini yaxshi bilsa va ajrata olsa u o'zi o'rganayotgan chet tilida muloqot qila oladi va til egalarini yaxshi anglaydi. Uning oldidagi til bar'eri olib tashlanadi. Nutqi jonli va erkin bo'lb boradi.

Ijtimoiy guruhlarining muloqot tarzini kuzatish orqali shunday natijaga erishish mumkin deb hisoblayman. Ularning nutqidagi tilga hos bo'lgan ibora va jargonlarni aniqlay olish ham muhim masala hisoblanadi. Har bir tilning o'z sotsiolingvistik predmetlari mavjud, ular shu til orqali millat ruhiyatini ko'rsata oladilar. Ammo, ular turli sotsial guruhlar orqali turlicha qo'llaniladi. Bu holatni yosh va gender ijtimoiy guruhlarida yaqqolroq ko'rishimiz mumkin.

Ya'na bir tamoni bir tildan foydalanuvchi turli millatlarda ham aynan bir tilning sotsiolingvistik predmetlardan fonetik, semantik, leksik tamondan turli tarzda foydalanishlarini ko'rishimiz mumkin.

Ijtimoiy guruhlar bu sotsiolingvistikaning tilni analiz qilish borasidagi eng qulay sferasi hisoblanadi. Chunki, ularda tilga hos sotsiolingvistik ko'rinishlar hilma- hilligi mavjud. Har bir sotsial guruh tilga o'ziga hos yondashadi va yangiliklar qo'shib boradi. Masalan: o'zbek o'smirlari orasida O.K ingliz so'zi optimallashtirib, insonlar nutqiga chuqur o'rnashib bormoqda, yoki "pampers" so'zi asl ma'nosini yo'qotib, taglik ma'nosida tilimizga o'rnashib ulgurdi.

Fikrimning so'ngida aytmog'chimanki, sotsiolingvistika kundan- kunga taraqqiy topa boradi, chunki biz dunyoni anglashga kirishganmiz, bu esa horijiy tilni o'rganish va undan foydalanishsiz kechmaydi, shunday ekan har bir tilda o'ziga hos sotsiolingvistik ko'rinishlar yangilanib, ko'payib boraveradi, bu esa bizdan faqatgina sotsiolingvistik kompetensiyamizni oshirishimizni talab etadi holos.

II BOB. AKADEMIK LITSEY TALABALARINING INGLIZ TILINI O'RGANISHLARIDA YUZAGA KELUVCHI SOTSIOLINGVISTIK MUAMMOLAR TAHLILI

II.1. Chet til ta'limida talabalarining jinsi (gender) va yosh hususiyatlarining o'ziga hosligi

Magistrlik dissertatsiya mavzusi asosan akademik litsey talabalarining ingliz tili darslaridagi sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilganligi uchun, asosan o'smirlarning yosh va jins hususiyatiga ko'ra chet tilini o'rganish va undan foydalanishlariga ko'proq ahamiyat qaratdik. Sotsiolingvistika nuqtai nazaridan litsey talabalarini ijtimoiy qatlamning yosh bo'yicha birligiga mansub bo'lib, ularning har biri til o'rganishda o'z maqsadi va qiziqishiga ega. Shunga ko'ra, ular ingliz tilini turlicha qabul qiladilar va foydalanadilar. Bu borada turlicha fikrlar mavjud, shulardan biri: "Turli yosh guruhlariga mansub bo'lgan til o'rganuvchilar o'zlari o'rganayotgan tildan turlicha foydalanadilar. Misol uchun, ingliz tilini o'rganayotgan maktab o'quvchisi uchun shu tilda gaplashuvchi mamlakatlar, ularning urf-odatlar va bayramlari qiziq bo'lsa ingliz tilini mukammal o'rganmoqchi bo'lgan talabalar va yoshi katta o'rganuvchilar uchun uning imkoniyatlari va globalligi muhim ahamiyatga ega".²⁷

Yillar mobaynida til o'rganishdagi eng katta muammo bu yosh borasidagi ruhiy-fiziologik tengsizlik hisoblanadi²⁸.

Agar yosh davrlarining ingliz tilini o'rganish va foydalanishlaridagi hususiyatlarga e'tibor bersak, ularning ingliz tilidagi muloqot va so'z tanlash holatlari, maqsad va qiziqishlari turlicha ekanligini kuzatamiz. Masalan, bolalar ko'proq bo'yoqdor va sodda so'zlarni ishlatishsa, yoshlar slenglar, qisqartirilgan so'zlarni, kattalar asosan maqol va iboralarga boy badiiy tilni ma'qul ko'radilar.

²⁷ Kormos, Judit and Csizér, Kata (2008) Age-related differences in the motivation of learning English as a foreign language: Attitudes, selves and motivated learning behavior. *Language Learning*, 58 (2). pp. 327-355. ISSN 0023-8333

²⁸ Mamatkulova Gulsum Aristambekovna. "Vozrastniye I individual'no tipicheskiye razlichiya uchashixsya v usvoenii inostrannogo yazika". Dissertatsiya. 1996.

Yoshlar nutq madaniyatini tahlil qilar ekanmiz, ularning ba'zi bir ma'lum guruhigina tushunadigan va ishlatadigan so'zlardan ham foydalanishlarini kuzatishimiz mumkin. Har bir guruh yangi so'zlardan o'zining ruhiyati, yoshi va temperamentiga yaqin bo'lganini tez eslab qoladi va ko'proq qo'llaydi. Misol uchun: yakka, yagona so'zini bolalar "single" so'zi bilan ta'riflashsa, yoshlar "unique" so'zi bilan, kattalar "solo" so'zi bilan ta'riflashlari mumkin. Hatto bir so'z talaffuzi ham har bir guruhda turlicha bo'lishi mumkin.

Qaysi yoshda bo'lmasin nafaqat ingliz tilini balki, boshqa chet tillarini yaxshi va mukammal o'zlashtirish uchun albatta o'z ona tilini yaxshi bilish lozim. "O'z ona tilida yaxshi o'qiy oladigan va yoza oladigan talabadangina ingliz tilini mukammal egallaydigan mutaxassis kutish mumkin".²⁹

Akademik litsey talabalarining yoshi o'smirlikning ilk davriga kelib, bir qator psixologik hususiyatlar bilan harakterlanadi. Ulardagi yosh hususiyatlarining o'ziga xosligi ayni boshlang'ich kurslardan boshlab tarkib topa boshlaydi. Psixologiya kursidan ma'lumki har bir yosh bosqichida oldingi bosqichdan yosh hususiyatlaridan ayrimlari saqlanib qoladi.

O'smirlilik - bu shaxsni tarkib topish va kamolatga yetishishidir. Bu yoshda o'smirlarda tashqi muhitga munosabat va o'z faoliyatiga baho berish hususiyatlari rivojlanadi. Lekin shu bilan birga o'smirlarga xos narsa bu kuchiga ortiqcha baho berish va o'zligini ko'rsatishdir. Bu esa tez-tez turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. O'quvchilarning ongida barcha umumiy o'quv va chet tili predmetiga bo'lgan munosabatlarida ham sezilarli o'zgarish yuz beradi. Masalan: maktabni bitirayotganda chet tili o'rganishga bo'lgan qiziqish bir oz so'ngandek tuyuladi. Lekin akademik litsey yoki kasb hunar kolleji talabalariga aylangach, o'smirlar chet tili o'rganishga alohida bir qiziqish va javobgarlik bilan qaraydilar. Bu bosqichda o'quvchilar psixologiyasining o'zgarishi tufayli avvalgi bosqichlarda yaxshi natija bermasligi mumkin. O'smir

²⁹ Coppola, J. (2005). English language learners: Language and literacy development during the preschool years. *Journal of the New England Reading Association*, 41(2), 18-23.

talabalar bajarish maqsadi aniq bo'lmagan mashqlarni qiziqishsiz., befarqlik bilan bajaradilar. Ammo ular ma'no jihatdan bog'liq tekstlarni alohida bir qiziqish bilan o'qishadi. Bu bosqichda mustaqil ishlash alohida rol o'ynaydi, ayniqsa chet tili bilan. Litsey yoki kollej talabalari darslariga qo'yilgan talablar oldingi etaplardagidan farq qiladi. Endi dars og'zaki nutq asosida ko'rilmaydi, chunki bu bosqichda til materialining ko'pchilik qismi passiv ravishda (retseptiv holda) o'rganiladi. Ya'ni o'qib tushinish asosiy rol kasb etadi. Tekstlar ham xajmi jihatidan, katta til materialiga esa murakkabdir.

Darsni kompleks asosda tashkil qilish til materialining ayrim jihatlarini (leksik va grammatik) ba'zan fonetik mashqlar yoki interaktiv topshiriqlar bilan almashtirib turishi kerak. Bu bosqichda chet tili o'qitishning qiyinchilik tomonlaridan biri dars soatlarining yetarli emasligidir. Og'zaki nutq ko'nikmalari faqat darsda erishiladi, shuning uchun yuqori guruhlarda dars soatining cheklanganligi tufayli biz avval dialogik va monologik nutq sohasida erishilgan ko'nikma va malakalarni saqlashimiz va takomillashtirishimizga to'g'ri keladi. O'quvchilar sinfda yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda mamlakatimiz va ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar xayotidagi o'zlarini qiziqtiradigan voqealar yuzasidan suhbat olib borishlari, nutqni tinglab tushinish malakalarini o'stirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bosqichda tez o'qishga o'rganishdan tashqari o'qituvchi o'quvchilarni o'zbek-ingliz, ingliz-o'zbek lug'atlaridan to'g'ri va samarali foydalanish usullarini o'rgatishi kerak. Kontekstdan tushinishga o'rgatish ko'nikmalari ham shu bosqichdan boshlanadi, demak, tekstlarda ba'zi notanish so'zlar bo'lishiga yo'l qo'yiladi. O'qish bo'yicha amaliyot yengil lug'atga murojaat qilmaydigan tekstlar asosida amalga oshiriladi.

O'smirlar asosan horijiy tildagi qo'shiq va filmlarni eshitish va ko'rish orqali chet el yoshlari nutqida uchraydigan so'zlarga ko'proq ahamiyat qaratadilar va foydalanadilar. Ularning nutqida aynan shu sferada ko'p uchraydigan so'zlar aktiv holatga ega. Masalan: love, believe, friendship, car, moto, desire va boshqalar. Shuningdek, ular chet eldagi tengdoshlari

ishlatadigan sleng va jargonlarni aslicha nutqlariga ko'chirib oladilar va foydalanadilar. Ammo shunday holatlar ham bo'ladiki, ular slengning asl ma'nosini va ishlatiladigan joy va holatini anglamay turib ham undan foydalanadilar bu esa sotsiolingvistik muammolarga olib keladi. Quyida o'smirlar o'rtasida eng ko'p tarqalgan slenglarni keltirmoqchimiz.

Damn – qo'pol, to'pori, sleng sifatida “aldoqchi, yashshamagur”

Dunny- o'ra, qazilgan joy, sleng sifatida “hojathona”

Chic- zamonaviy, sleng sifatida “go'zal qiz”

Loony – ruhiy kasal, sleng sifatida “mayda”

Aynan shu slenglarni noo'rin qo'llash ham, ko'ngilsiz holatga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'smirlar o'rtasida juda ko'p uchrab turadi. O'smirlarni aynan shunday holatlarga moyilligini hisobga olgan holda ingliz tili darslarida slenglar, iboralar, maqollar va boshqa sotsiolingvistik predmetlarning ayni qo'llanish holatlari va ma'nolarini o'qituvchi tamonidan to'liq va qiziqarli tarzda tushuntirilishi va o'rgatilishi lozim deb hisoblaymiz. Ingliz tilini o'rganishda yosh hususiyatlari va ularning sotsiolingvistik farqlari haqida juda ko'p gapirishimiz mumkin, ammo til o'rganishdagi eng muhim jarayon bu talabanning ishtiyoqi va irodasini inobatga olishdir.

Til o'rganish va undan foydalanish jarayonining qay darajada o'tishi va qanday saviyada olib borilishi suhbatdoshlarning muomala madaniyati va jinsiga ham bog'liq bo'ladi. Agarda kommunikantlardan biri ayol kishi bo'lsa, uning nutqi, tovushlar ifodasi, so'zlarni qo'llash jihati bilan ma'lum ma'noda erkak suhbatdosh nutqidan farq qilishini kuzatamiz. Erkaklar nutqi bosiq, qat'iyiligi bilan ajralib turishiga guvoh bo'lamiz.

Erkaklar va ayollar nafaqat tuzilish, did, jismoniy kuch jihatdan balki, nutq va so'z tanlash jihatining o'zgachaligi bilan ham farq qiladilar. Sotsiolingvistikada genderlar iborasi faqatgina jinsiy farqni ifodalash uchungina emas, balki ularning lingual jihatdan farqlarini ko'rsatish uchun ham qo'llaniladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ayollar va erkaklar sotsiolingvistik jixatdan tildan turli tarzda foydalanishadi. Bu xilma-xillik asosan ayol va erkakning nutq madaniyati (so'zlashuv uslubi) va so'z tanlash jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Agar, kommunikantlar muloqot jarayonida yoshlari va jinslariga mos, xos bo'lmagan so'zlarni ishlatishini yoki bir muddat ayollar va erkaklarning biror bir masaladagi fikrini ifodalayotganini kuzatsak, ularning ma'no maqsadi bir bo'lgani bilan so'z tanlash va ularning talaffuzi har xil ekani, jummalarning bir-biriga bog'liqligi mazmunga u yoki bu darajada ta'sir etishini sezisiz.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, e'tiborimizni o'smirlar nutqiga qaratarkanmiz, ular o'rtasidagi chet tili o'rganish va undan foydalanish davomidagi farqlarni ham kuzatishimiz mumkin, ba'zida o'quvchi qizlar o'g'il bolalarga nisbatan chet tilini o'rganish va unda muloqot qilishga aktiv harakat qilayotganliklarini ko'rishimiz mumkin, chunki, ular yangiliklar va o'zgarishlarga psixologik tarafdin tez moslashuvchan bo'lishadi. Ammo, bu ayollar aqlliroq yoki chet tili materiallarini o'zlashtirishga layoqatliroq degani emas, ammo faylasuf Duglas D. Bermanning o'tkazgan tadqiqotiga ko'ra aynan ikkinchi yoki uchinchi tilni o'rganishda qizlar miyasining ikkala qismi ham teng ishlasa, o'g'il bolalar miyasining asosan chap yarim shari aktiv holatda bo'ladi. Bu jarayon esa aynan o'smirlik davrida yaqqol seziladi.

Akademik litsey talabalari nutqining ravon va to'g'ri bo'lishi asosan ingliz tili darslarida ularning sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan metodlarning to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Ingliz tili darslaridagi kuzatishlarim natijasida o'smir yoshdagi qizlar asosan, oila, uy, moda va turmush sohasiga hos ingliz so'zlarini tez va oson yod olishlarini va shu haqidagi ma'lumotlarga qiziqish bildirishlarini kuzatdim. Quyida shunday so'zlarga misol keltiramiz.

Bride- kelin

Groom- kuyov

Wedding- to'y

Style- uslub

Hair pin- soch to'g'nog'ichi

Mother in law- qaynona

O'g'il bolalar esa sport, kino olamiga hos bo'lgan so'zlar va yuqorida aytib o'tganimiz ko'cha so'zlariga ishtiyoqi baland ekanligini ko'rishimiz mumkin. Masalan:

Combat- kurash

Hero- qahramon

Gun- qurol

Marksman- snayper

Riding- mashina minish

Sotsiolingvistik tahlil qilishning bir turi bo'lgan kuzatish natijasida bir dars mobaynidagi akademik litsey talabalarining so'z qo'llashlaridagi farqlarni jadval tarzida keltirmoqchimiz.

	Olmoshlar (men, mening meniki)	Ijobiy emotsional so'zlar	Ijtimoiy so'zlar	6 harfdan uzun bo'lgan so'zlar	Artikllar (the, a, an)
O'g'il bolalar	68	26	10	12	81
Qiz bolalar	63	31	7	23	61

(2-jadval)

Ko'rib turganimizdek, o'g'il bolalar nutqida egalik, aniqlik, oddiylik ko'proq ustunlik qilsa, qizlar nutqida esa buning aksi ko'zga tashlanadi.

Ular eng shakllantirish maqbul yoshda bo'lganliklari sababli ham, ular bilan tinmay ishlash, lug'aviy boyliklarini oshirishga yordam berish va ularni to'g'ri yo'naltirish shuningdek, akademik litsey talabalarining nutqining ravon va to'g'ri bo'lishi uchun albatta ingliz tili darslarida sotsiolingvistik kompetensiyalarini oshiruvchi metodlarini ishlab chiqish kerak deb hisoblaymiz.

Aynan shu davr vakillari bilan tinmay ishlash kerakligi sabab, ular horijiy tilni tez o'rganishlari bilan birgalikda ta'sir doirasiga tez tushadilar. Shuningdek, sotsiolingvistik muammolarga ham ko'proq duch keladilar. Bu haqida keyingi paragrafda batafsil to'xtalamiz.

II. 2. Ingliz tili darslarida til materialini taqdim etishda talabalarning yosh hususiyati bilan bog'liq muammolar.

Ingliz tili olmon tillari oilasiga kiruvchi tillar ichida eng ko'p tarqalgani hisoblanadi. Bilamizki, ingliz tili bir necha mamlakatlarning davlat tili bo'lib qolmay, ba'zi bir davlatlarning ikkinchi norasmiy tili ham hisoblanadi. Bu til dunyo bo'ylab keng yoyilganligi sababli ham undan foydalanishda sotsiolingvistik muammolar ko'p uchraydi.

Har qanday mamlakatga horijiy til kirib kelishi shu mamlakatning sotsial hayoti va tiliga o'z ta'sirini o'tkazib boradi. Tilda turli hil holatlar vujudga kela boshlaydi. Shunday vaziyatda sotsiolingvistik muammolar kelib chiqadi. Sotsiolingvistik muammolarning turli ko'rinishlari mavjud. Birinchi ta'moni horijiy tilning ijtimoiy hayot ta'siriga tushishi natijasida kelib chiqsa, ikkinchisi horijiy til o'rganayotgan talabaning horijiy tilning asl so'zlovchilari bilan bo'ladigan muloqot jarayonida kelib chiqadi. Masalan: O'zbekisonda ingliz tilini o'rganish juda ham izchillik bilan olib borilmoqda. Bilamizki har bir millatning o'z shevalari va fonetik qirralari mavjud bo'lib, ularni chet til ta'limida inobatga olish muhim sanaladi, jumladan, ingliz tilida har bir sheva vakili o'z shevasida so'zlashishi mumkin. Bu hato demoqchi emasman, ammo bu orqali ba'zi bir tovushlarning noto'g'ri talaffuzi yoki intonatsiya va urg'uning noto'g'ri qo'llanilishi oqibatida biz bermoqchi bo'lgan fikrimiz horijiy tilda umuman boshqa ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan: Xorazm shevasida "k" tovushi "g" tarzida talaffuz qilinadi. Bu holatda quyidagi sotsiolingvistik muammo kelib chiqishi mumkin.

I have a cat- Mening mushugim bor.

I have a gat- Mening revolverim bor.

Surhandaryo vohasida "a" tovushi "e" ga yaqin talaffuz qilinadi.

But- ammo

bet- garov

Agar bu so'zlarni biror gapda adashtirilsa, umuman tushunarsiz gap hosil bo'ladi.

Ikkinchi tamonlama sotsiolingvistik muammo bu o'smirlarning tildan o'zgacha tartibda foydalanishi. Boshqacha qilib aytganda "teen english". Ayni shu jarayon bilan batafsil tanishishga harakat qilamiz.

Sotsiolingvistik muammolar, ya'ni ijtimoiy hayotning tilga ta'sirida vujudga keladigan muammolar ko'proq shu jabhada uchraydi. Chunki, akademik litsey, kasb-hunar kolleji talabalari ayni 16-18 yoshdagi o'smirlar hisoblanishadi, shuning uchun ham, ular nutqiga tashqi ijtimoiy hayot tez ta'sirini ko'rsatadi.


Hozirgi kunda o'smirlarning nutqiga judayam keng ta'sir qilayotgan vositalar: internet va qo'l telefonlari hisoblanadi. Bu muammo dunyoning barcha o'smirlariga ham tegishli.

Chet el olimlari hozirgi avlodni "net generation" shuningdek, ular nutqini "web speech" deb atashmoqda³⁰. Aytish mumkinki, bu holat talabalar hotirasi va mas'uliyatini susaytirishga olib kelmoqda. O'quvchilarning qo'l telefonidan foydalanishi 70%dan oshdi.³¹ Bu ularning qay darajada texnologik aktiv ekanliklarini ko'rsatadi.

Sotsiolingvistik ta'sir oqibatida tilning asl ko'rinishi fonetik, semantik, grammatik jixatdan o'zgaradi. Bu holatga ingliz tilining amerika variantini misol qilib olishimiz mumkin. Buni quyidagi diagramma orqli obrazli tarzda ifodalashimiz mumkin.

30.Thurlow, C. (2001). Talkin' 'bout my communication: Communication awareness in early adolescence. *Language Awareness*, 10 (2&3), 213 –231.

³¹ Stekolnikov Aleksey. "Aliye Parusa" ns. portal. ru.14.04.2012."Vliyaniye sotovoga telefona na podrostkov".



(3-diagramma)

Til o'zlashtirilishi chaqaloqlikdan boshlanar ekan shu davrdan boshlab, bola nutqi muhit ta'sirida rivojlanadi. Keling, bu borada tilshunoslarning fikrini ko'rib chiqamiz. "Within the first '12-18 months semantic roles are expressed in one word speech including agent, object, location, possession, nonexistence and denial. Words are understood outside of routine games but the child still needs contextual support for lexical comprehension"³² Ya'ni, bolaning nutqini to'g'ri o'stirish uchun uning bolaligidagi har qanday holat muhim. Sotsiolingvistik muammolar bolalikdan rivojlanishi mumkin.

Horijiy til o'rganishning tabiiy va sun'iy holatlari mavjud bo'lib, birinchi holatda til o'rganuvchi tili o'rganilayotgan mamlakatda shu tilda so'zlashuvchilar bilan muloqotga kirishgan holatda ko'nikma hosil qilish orqali chet tilini o'rgansa, ikkinchi holatda sun'iy yaratilgan sferada ya'ni chet tili darsida o'rganishi mumkin. Tabiiyki ayni sotsiolingvistik muammolar ikkinchi holatda ko'proq yuzaga kelishi kuzatiladi. Chunki, chet el va chet tilini tanishtiruvchi sifatida faqat horijiy til o'qituvchisi turadi, bu esa chegaralangan va bir tizimdagi nutqni hosil qiladi. Dars mobaynida standart til materiallaridan foydalaniladi, buning natijasida esa, o'quvchi yoki talabada mono talaffuz va


³² Brandone, Amanda, Salkind, Sara, and Golinkoff, Roberta, "Language Development" (n.d.): 499–514

leksika paydo bo'ladi. Shuning uchun ham ular nutqiga ta'sirlar ko'p uchraydi. Chet el filmlari yoki qo'shiqlaridagi ba'zi bir iboralar yoki slenglar, global tizimdagi yangicha ko'rinishdagi so'zlashish uslublari ular uchun notanish bo'lsada, qiziqarli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Aynan o'smir talabalardagi dunyoni anglashga bo'lgan intilish va qiziqish bunga sabab bo'ladi. Tabiiyki, o'zlari ko'nikma hosil qilmagan so'zlashuv uslubi yoki so'z, iboralardan foydalanishda yoki leksik, yoki fonetik hatoliklarga yo'l qo'yishlari mumkin. Buning oldini olish uchun esa, talabalar nutqiga bo'lgan ta'sirlarni o'rganib chiqish va ularni to'g'ri yo'naltirish kerak.

O'smirlar nutqiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omil bu-tashqi muhitdir.³³ Shuning uchun ham, akademik litsey o'quvchilarining ingliz tilidagi nutqida qisqartmalar, sonlarning harflar o'rniga qo'llash holatlari ko'payib bormoqda.

Sotsiolingvistikada anketa orqali guruhlarning so'z tanlash uslubimi aniqlash eng mashxuri va natijalisi hisoblanadi. Quyida akademik litsey talabalari o'rtasida anketa savollariga javoblar tarzida o'tkazilgan so'rov natijalarini havola etamiz.


Ko'p qo'llaniladigan so'zlar.



(4-diagramma)

³³ Blumenfeld, H; Faroqi-Shah, Y (2009). "Consequences for language, cognition, development, and the brain". *American Speech-Language-Hearing Association* **14** (13): 10.

Yodlab qolish qiyin va kam foydalaniladigan so'zlar.



(5-diagramma)

Eng quvonarlisi, o'smirlarimizning ingliz tilidagi nutqiga hali horij o'smirlari nutqidagi jargonlar keng miqyosda kirib kelganicha yo'q, ammo yozuv uslublari ancha o'zgargan va qisqartmalar ko'paygan.

“ **Y** ” - “ **Why** ” -nima uchun

“ **2morrow** ” -“ **tomorrow** ” - ertaga

“ **4 u** ” - “ for you ” - sen uchun

“ * ” - “ **star** ” - yulduz.

“ **cu**”- “ **see you**” – ko'rishguncha

Sotsiolingvistik muammolarning uchinchi tamoni bu til o'rganuvchining horijiy til vakili bilan bo'lgan muloqotda yuzaga kelishi mumkin. Bu masalaning ikki tarafi bor:

Birinchi masala, ingliz tilining turli variantlari va ko'rinishlari bo'lganligi sababli (turli mamlakatlarda turlicha qo'llanilishi) so'z va iboralarning turli ma'noda qo'llanilishini o'smirlarimiz tamonidan puxta egallanilmayotganligi, va standart til qobig'ida qolayotganliklari;

Ikkinchi masala, ayni birinchi masalaga zid ijtimoiy hayotning yoshlarga tez ta'sir ko'rsatishi va ular nutqidagi noto'g'ri va keragi yo'q so'zlarning paydo bo'layotganligi va noo'rin qo'llanilayotganligi.

Bir ko'rishda ikkala masala bir- biriga zid tuyulsada, ammo birinchi masala to'liq hal etilishi bilan ikkinchi masala o'z- o'zidan yechiladi. Ya'ni akademik litsey o'quvchilarini ingliz tili darslarida faqatgina standart ingliz tili bilangina tanishtirmasdan ularga norasmiy ingliz tilini ham ko'rsatish, o'ziga hos jihatlarini tushuntirib o'tish va erkin til holatini saqlash kerak. Shundagina ular ko'r- ko'rona qaysidir film yoki qo'shiqda eshitgan so'zini noo'rin qo'llamaydi va ma'nosini anglay oladi.

Bu holatga misol tariqasida quyidagi so'zlarni keltirishimiz mumkin, va ayni shu sotsiolingvistik o'ziga hosliklarga ega bo'lgan so'zlar bilan dars mobaynida tanishtirib borish kerak deb hisoblaymiz.

1) Our neighbours are kiwis.

Bu gapni standart ingliz tilida "Bizning qo'shnilarimiz kivilar" deb tarjima qilgan bo'lar edik, ammo u mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Bilamizki, ingliz tilida "kiwi" bu meva va dars mobaynida o'qituvchi o'quvchilarga bu so'zni mevalar bo'limida o'rgatadi. Ammo, aynan shu so'z Avstraliyada nafaqat mevani anglatadi balki, yangi Avstaliyaga ko'chib kelgan insonga nisbatan ham ishlatiladi.

"Bizning qo'shnilarimiz Avstraliyaga yaqinda ko'chib kelishgan".

2) After working day, I was dead yesterday.

Standart ingliz tilida bu gapni "Kecha ishdan keyin o'lib qoldim" deb tarjima qilamiz, chunki "dead" so'zi "o'lmoq" fe'lining o'tgan zamon shakli. Ammo amerikada bu gap "Men kecha ishdan keyin, o'lgudek charchagan edim" degan ma'noni bildiradi.

3) Give me please, one mickey.

Tarjimada "iltimos menga bitta mickey bering" (ya'ni o'yinchoq mickey mouse) degan ma'noni berishingiz mumkin, ammo Kanadada bu "Menga bir shisha likyor bering" degan ma'noni anglatadi.

4) He is a cactus.

Albatta tushunarsiz gap deb o'ylaysiz va "U kaktus" deb tarjima qilishingiz mumkin, ammo bu Avstraliyada "U tamom bo'libdi" deya tarjima qilinadi.

5) Way to go.

"Borish uchun yo'l" lekin bu Amerikada "Juda zo'r" degan ma'noni anglatadi.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, talabalarning sotsiologiyaviy kompetensiyalarini shakllantirish uchun, ingliz tili darslarining tashkillashning yangi ko'rinishlarini ishlab chiqish lozim. Hozirgi kundagi davlatimizning ta'lim tizimidagi islohotlari bu rejalarni amalga oshirishda asos bo'la oladi deb o'ylaymiz.

II. 3. O'zbekistonda xorijiy til o'qitish tizimi va uning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillari o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingandan so'ng, chet tillarini o'rganish va o'rgatish tizimida yangi davr boshlandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, qarorga ko'ra:

- xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz) o'rgatishning yagona tizimi ishlab chiqildi;
- chet tillarni 1- sinfdan o'qitish yo'lga qo'yildi;
- til o'qitish borasidagi muqobil darsliklar chiqarilishi yo'lga qo'yildi;
- adabiyotlar tarjimasini faoliyati yanada takomillashtirilmoqda;
- respublikamizning barcha chet tili o'qituvchilarining malakasi oshirilishi tashkillandi;

Bularning barchasi dunyoga yuz tutayotgan O'zbekistonning farzandlari yanada bilimli va dunyoqarashi keng bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezidentimiz nutqlaridan birida shunday deydi: "Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning xojati yo'qdir."

Shuningdek, bu borada respublikamizda yana ko'plab ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda Britaniya Kengasi bilan hamkorlikda "Chet tillarni egallashning umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" (CEFR) shartlariga tayangan holda ishlab chiqilib, unda ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar belgilandi. Shuningdek, inglizlik ekspert Rod Balayto boshchiligidagi mutaxassislar tomonidan to'liq ekspertizadan o'tkazilib, takomillashtirildi hamda 2013 yil 8 mayda "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida" gi 124- sonli qarori bilan tasdiqlandi.

Tayyorlangan va ta'lim tizimiga tadbiiq etilishi kutilayotgan yangi davlat ta'lim standarti yurtimiz ta'lim muassasalarining turli yoshdagi bitiruvchilariga quyidagi talablarni qo'yadi.³⁴

Ta'lim bosqichi	Bitiruvchilarga talablar	Umum yevro xalqaro standar darajalari	Bosqich nomlanishi
Umumiy o'rta ta'lim	Boshlang'ich sinf (4-sinf) bitiruvchilari	A 1	Chet til egallashning boshlang'ich darajasi
	9- sinf bitiruvchilari	A 2	Chet tili egallashning tayanch darajasi
	Chet tillari chuqurlashtirib o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktab 9- sinf bitiruvchilari	A 2+	Chet tili egallashning kuchaytirilgan tayanch darajasi
maxsu kasb huna	Chet tillariga ixtisoslashmagan akademik litseylar bitiruvchilari	B1	Chet tili egallashning mustaqil boshlang'ich darajasi

³⁴ Abdurahim Nosirov, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi boshqarma boshlig'i, "Har tilni bilmoq endi bani odama jondir", "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 5-son 2013yil, 11-12 bet.

Ta'lim bosqichi	Bitiruvchilarga talablar	Umum yevrop xalqaro standart darajalari	Bosqich nomlanishi
	Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari		darajasi
	Chet tillariga ixtisoslashgan akademik litseylar bitiruvchilari – 2-chet tili		
	Chet tillarga ixtisoslashgan akademik litseylar bitiruvchilari	B1+	Chet tilini egallashning kuchaytirilgan mustaqil boshlang'ich darajasi
Oliy ta'lim	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lmagan fakultetlar bakalavriat bosqichi bitiruvchilari	B 2	Chet tilini egallashning mustaqil muloqot darajasi
	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lmagan fakultetlarmagistratura bosqich bitiruvchilari		
	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lgan fakultetlar bakalavriat bosqichi bitiruvchilari – 2-chet tili		
	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lgan bakalavriat bosqichi bitiruvchilari	C 1	Chet tilini egallashning erkin muloqot darajasi
	Oliy ta'lim muassasalarining ixtisosligi chet tili bo'lgan magistratura bosqichi bitiruvchilari		

(3-jadval)

Ko'rib turganimizdek, endi har bir ta'lim tizimining o'z chet tilini bilish darajasiga qo'yiladigan talablar mavjud. Bu esa yurtimizda horijiy tilni

egallaganlik ko'nikmasini yanada yuksalganligini ko'rsatadi. Respublikamizda avvaldan chet tilini o'rganilishiga yuqori e'tibor qaratilgan, endi esa takomillashtirilmoqda. Yangi tizimning afzallik tamonlari shundan iboratki, avval horijiy til umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflaridan fan sifatida horijiy til grammatikasi asosan va fonetikasi o'qitilgan bo'lsa, hozir 1-sinfdan horijiy tilning sotsiolingvistik tamondan bola nutqining asosiy qirralarini shakllantiruvchi qo'shiqlar, she'rlar, ertak va hikoyalar bilan birgalikda o'qitilmoqda. Avval chet tili darslarida ko'proq o'qish va yozish elementlari bajarilgan bo'lsa, endiga kelib, asosan o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga qaratilgan mashg'ulotlar ishlab chiqilmoqda.

Agar horij tajribasini kuzatadigan bo'lsak, ularning dars soati daqiqama-daqiqa bo'lib chiqilgan.³⁵

<p>1.Flash cards (10 mins)</p>	<p>Print the playground flashcards. Hold up the 'swings' picture card and say 'I like playing on the swings. Do you like the swings?'</p> <p>Tell the students to put up their hand if they like playing on the swings.' Do the same with the other picture cards.</p> <p>Now ask the students to listen and repeat the playground words after you as you show them the cards. Spread out the picture and word cards face up on the floor. Ask for volunteers to match the pictures with the correct words. Now put all the picture and word cards face down on the floor. Invite students to choose two cards. Can they find matching pairs?</p>
<p>2. Song (10 - 15 mins)</p>	<p>Ask the children to tell you playground activities in English and write them on the board. Play the song and ask children to stand up each time they hear one of the activities on the board. Play the song again– this time the children follow the words and join in with just the last word of each line.</p>
<p>Story (10–15 mins)</p>	<p>Play the first section of the story to the class. Pause and ask the children questions about what they can see on the screen, e.g., Where are they? Is this a cat? Who is this? Click on the 'next' button to play a little more of the story and stop when they reach the park. Now ask</p>

³⁵ www. Teachingenglish.org.uk./the english lesson plans. The British council 2013.

	<p>the class what they can see in the park. Ask for hands up to give answers. Play the rest of the story. Did the children like the story? Ask them if the dog was happy? Why/ why not? There is an optional activity worksheet to download and print under the story. You can also print the words to the story.</p>
<p>4. Games (5–10 mins)</p>	<p>Ask for Choose an easy game or a more difficult game depending on the level of your class. If you have access to a computer room you can let children decide which game they would like to play. Children take turns to answer a question each on the classroom computer volunteer to put up their hands.</p>
<p>5. Speaking (5-10 mins)</p>	<p>Ask the children to tell you activities they do in the playground/park/ at home Write the activities on the board. Ask individual students ‘Do you like ..?’ Encourage them to answer ‘Yes, I do/No I don’t/ It’s ok’. Drill questions and answers by asking the children to repeat after you..</p>
<p>6. Writing (5 -15 mins)</p>	<p>In this your turn on the LearnEnglish Kids website, children can post comments on the site saying what they like doing in their free time. You could ask the students to do this for homework if they are registered on the website. Do an offline version in class by asking children to write a sentence or two about their free time activities. Ask the students to read a few of the comments on the site and say whether they like the same things or not. Lower levels can write a very simple sentence such as ‘I like swimming.’ Collect the writing and make a poster to display in the classroom.</p>

Agar dars ko'proq og'zaki elementlarga va aktiv o'yin va topshiriqlarga tayanib, tashkillansa o'quvchining chet tilida erkin muloqotga kirisha olish layoqati o'sib boradi. Shuning bilan birgalikda asos bilimlarni egallab bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalarining chet tili darslarida tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi, madaniyati, etikasi xalq og'zaki ijodi vositalari va milliy ruh va tus kasb etuvchi ibora, slang va o'ziga hos so'zlar bilan talabalarni

tanishtirib borilsa, talabalarda mamlakat xaqida tasavvur paydo bo'ladi va ular til ruhiyatini yaxshi anglaydilar va uni to'g'ri qo'llay oladilar.

O'zbekistonda horijiy til sifatida ingliz tilining o'qitilishini kuzatadigan bo'lsak, ingliz tili darslarida o'qituvchi oldiga 3 ta: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni qo'yganligini ko'ramiz. Agar mavzu: "My motherland" deb olsak, ta'limiy jihati, olmoshlar ya'ni pronouns va ularning turlari, ishlatilishini, atoqli otlar va ular haqida ma'lumot berishimiz, tarbiyaviy tamoni o'quvchilarda vatanparvarlik hissini shakllantirishimiz, rivojlantiruvchi yurtimiz tarixi, allomalari, madaniyati haqida hikoyalar qilib berishimiz mumkin. O'quvchilar barcha ma'lumotlarni ingliz tilida gapira olish ko'nikmasi yoki grammatika saboqlaridan tashqari milliy ruhiyatni ham o'zlarida his etadilar.

Ingliz tili darslarini tahlil qiladigan bo'lsak, yangi qaror qabul qilingungacha bo'lgan davrda ingliz tili darslarini umumiy o'rta ta'lim maktablarida 5- sinfdan 9- sinfgacha o'qitilib kelinganiga, o'quvchilar maktabni bitirib, akademik litsey yoki maxsus kasb-hunar kollejlarida aynan yana o'sha programmani qaytarayotganliklariga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu esa o'quvchi, talabalarni faqat ingliz tilidan fundamental bilimga ega bo'lib qolayotganliklaridan dalolat beradi. Endigi horijiy til o'qitish tizimida bu ko'zda tutilgan bo'lib, o'quvchilar kengroq bilim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Lekin, shuni aytib otish joizki, akademik litsey talabalarining ingliz tili darslarini yanada chuqurroq o'zlashtirishlari uchun fonetik, grammatik materiallarga qo'shimcha tarzida madaniyatlararo muloqot ko'rinishlari va aynan tili o'rganilayotgan mamlakat ijtimoiy tarkibining so'zlashuv uslublari bilan tanishtiruvchi, talabalarining yoshi va jinsiga mos keladigan metodlar ishlab chiqish va darsliklarga qo'shimcha metodik qo'llanmalar biriktirish lozim deb o'ylaymiz. Akademik litseylarning chet tili o'qitilishi chuqurlashtirilgan guruhlar uchun ish rejaga sotsiolingvistikaga doir bo'lgan mavzularni ham kiritish kerak degan fikrdamiz. Chunki, tilni o'rganibgina qolmay uni to'g'ri taqdim qila olish ham kerak.

Chet tili o'qitilishida nafaqat talabaning ishtiyoqi yoki interaktiv metodlar, balki uni tadbiq etayotgan o'qituvchining pedagogik mahorati ham katta

ahamiyatga ega. O'qituvchi dars mobaynida tili o'rganilayotgan mamlakat vakili sifatida gavdalanadi, ya'ni o'quvchi, talabalar ayni chet tili o'qituvchisining ko'rinishida horijiy til sohiblarini tasavvur etishadi. Ayni o'quvchi horijiy tilni o'qitishda mazkur guruhga mos bo'lgan 1) tarjima metodi; 2) to'g'ri va tabiiy (natural) metodlar va ularning zamonaviy ko'rinishlari; 3) aralash (omixta) metodlar; 4) ongli-qiyosiy metod; 5) shaxs faoliyatiga mo'ljallangan kommunikativ metodlardan birini tanlab, samaradorini tanlay bilishi zarur.

Bu borada bir buyuk muallim shunday deydi: "Any method in the hands of a good teacher is a good method"³⁶ ya'ni, yaxshi ustoz qo'lida har qanday metod-yaxshi metod hisoblanadi. Yurtimizda horijiy til o'qituvchilarining o'z sohalarining yetuk mutaxassisi bo'lishlariga juda ko'p imkoniyatlar yaratilgan, yuqorida aytib o'tganimizdek malakalari oshirilmoqda, turli imkoniyatlar berilmoqda. Shuningdek, respublika Xalq ta'limi vazirligi bilan Britniya Kengashi hamkorligida "Ingliz tili o'qituvchilari uchun" loyihasi asosida ta'lim texnologiyalarini o'rgatishda hamkorlik qilinmoqda.³⁷

Yurtimizda horijiy tillarni mukammal o'qitilishiga qaratilgan e'tiborning ahamiyati shundaki, O'zbekiston jahonda o'z o'rniga ega, halqaro iqtisodiy, siyosiy aloqalar o'rnatgan mustaqil davlat. Juda ko'p yoshlarimiz fan, sport, san'at sohalarida jahon arenalarida yuqori o'rinlarni egallashmoqda. Mazkur jarayonlar davomida esa til bilish va horijiy tilda erkin muloqot qila olish yuqori ahamiyatga ega. Madaniyatlararo muloqot shartlarini puhta egallaganlik yoki, chet tilida horijiy mamlakat vakillari bilan ravon gaplasha olish, ularning muomala madaniyatiga hos so'zlashuv qoidalarini bilish horijliklar o'ngida barkamol insonni gavdalantiradi. Boshqacha qilib aytganda, til bilgan el biladi naqliga rioya qilgan holda, kelajak avlodni zamon talablariga mos va dunyo bilan hamnafas qilib o'stirish yangi tizimning oldiga qo'ygan oliy maqsadi hisoblanadi.

³⁶ D. Suvonqulova "Modern methods of teaching english "Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejarida ta'lim va tarbya: muammolar va yechimlar. III respublika ilmiy- amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2013 yil Qo'qon., 115 bet.

³⁷ B. Ibragimov, A. Matkarimov, A. Maroziqov "O'zbekistonning horijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari" Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejarida ta'lim va tarbya: muammolar va yechimlar. III respublika ilmiy- amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2013 yil Qo'qon.,325


IKKINCHI BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Horijiy tillarni o'rganish/o'rgatish takomillashtirilayotgan bir davrda, ingliz tili darslarini tubdan o'rganib chiqib, kerakli chet tili o'rganish va o'rgatish tamoyillarini ishlab chiqish, hozirgi ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir.

Yuqoridagi fikrlarni jamlagan holda aytishimiz mumkinki, ingliz tili darslarining sifat va ko'rsatkich darajasini oshirishda, sotsiolingvistik hususiyatlar ya'ni, yosh va jins faktorlari muhim ahamiyatga ega.

Dars o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ma'lumotlar berish va ularni qabul qilish, tahlil etish jarayoniga asoslanadi. Shunday ekan, ingliz tili o'qituvchisi dars mobaynida o'tilayotgan mavzuni talabalarning yosh va jins hususiyatlarini inobatga olgan holda tushuntirsa, uni ularning fiziologik va psixologik ko'rsatkichlariga mos va o'smirlar uchun qiziqarli bo'lgan materiallar bilan boyitsa, maqsadga muvofiq bo'ladi va dars talabalar uchun qiziqarli va tushunarli yakunlanadi.

Qolaversa, dars mobaynida tili o'rganilayotgan mamlakat vakillarining nutqi va madaniyati shuningdek o'smirlar hayoti va ularning so'zlashuv uslubi haqida kengroq va batafsilroq ma'lumotlarni har darsning mavzusiga mos tarzda berib borilishi talabalarning sotsiolingvistik muammolardan halos etishga yordam bera oladi.



Akademik litseylarda ingliz tili darslarini tashkillashda yuqoridagi jadvalda ko'zda tutilganidek, yosh va jins hususiyati inobatga olinsa, samaradorlik oshib boradi. O'qituvchi tamonidan qo'llanilayotgan metodlarga qo'shimcha tarzda, ish rejada keltirilgan, mavzuga qo'shmcha tarzda talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini shakllantirishga hizmat qiluvchi, ular uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarni berib borishi ham muhim hisoblanadi.

Masalan:

Ish reja bo'yicha mavzu	Talabani yosh hususiyati inobatga olingan qo'shimcha ma'lumot	Talabalarning jins hususiyati inobatga olingan qo'shimcha ma'lumot	
		O'g'il bolalar	Qiz bolalar
The art of Great Britain	The famous teen masters of Great Britain	The sculptures of London	The designers and their works

(4-jadval)

III BOB. AKADEMIK LITSEY TALABALARINING INGLIZ TILI DARSLARIDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPOTENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI

III. 1. Sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish usullari

Ingliz tili darslarida talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirish asosan nutq faoliyati turlari: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuvni o'rgatishga asoslangan holda ishlab chiqildi.

Hozirgi kunga kelib, AL ingliz tili darslarida og'zaki nutqni o'stirishga qaratilgan e'tibor kuchayganini kuzatishimiz mumkin, bu maqsadga erishishning birdan-bir yo'li bu nutq faoliyati turlarini amaliy jarayonda bosqichma-bosqich olib borish bilan amalga oshiriladi. Birinchi bosqich, o'qish talabanning lug'at boyligini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Aslida o'qish ham gapirish singari nutq faoliyatining mustaqil, og'zaki nutq faoliyatini o'stirishdagi stimul darajasiga ko'tarilgan turi hisoblanadi. Ammo, o'qish og'zaki nutqqa tobe bo'lib qolmasligi kerak.

Chet til o'qituvchisining o'qish turlari bilan yaqindan tanish bo'lishi va o'z darslarida o'qishga, o'qib tushunishning ilg'or usullaridan keng foydalanishga e'tibor qaratishi dars samaradorligini oshiradi, shu bilan birga ta'lim oluvchilarning chet tilga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Talabalarning ingliz tilidagi sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirish uchun turli janrdagi dialekt va sotsiolingvistik til ko'rinishlarini o'zida aks ettirgan matnlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz. Darslarda matnlardan foydalanishda esa albatta quyidagi metodik amallarga rioya etish lozim:

- Tanlangan matnlar talabalarning yosh hususiyatlariga mos kelishi;
- Ularning ma'naviy saviyasini shakllantirishga hizmat qilishi;
- Matnda tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati, turmush tarzi, so'zlashuv uslubi va ijtimoiy hayotiga hos bo'lgan ma'lumotlarning keltirilganligi;
- Talabalarning jins faktorlariga hos qiziqishlarini inobatga olinganligi.
- Ingliz tilining turli ko'rinishlariga hos unsurlarning mavjudligi;

- matndan ko'zlangan maqsadning oydinligi o'qish davomida talabalarda mulohaza yuritish va idrok etish hususiyatlari rivojlanib boradi, qayta hikoya qilib berish orqali talabanning eslab qolish qobiliyati ham mustahkamlanadi.

Sotsiolingvistik ko'rinishlarni o'zida aks ettirgan matnlarni uch, ya'ni sodda, o'rta va murakkab turdagilarga bo'lishimiz mumkin.

Sodda o'qib tushunishga oson bo'lgan o'zida faqat madaniyatga doir so'zlarni jamlagan, tarjimada qiyinchilik kasb etmaydigan matnlar. Sotsiolingvistik kompetensiyasi past darajadagi talabalar aynan shunday matnlarni o'qishdan boshlashlari lozim. Mashqlarni quyidagicha matnlardan boshlash kerak:

Once there was a young rat named Arthur, who could never make up his mind. Whenever his friends asked him if he would like to go out with them, he would only answer, "I don't know." He wouldn't say "yes" or "no" either. He would always shirk making a choice.

His aunt Helen said to him, "Now look here. No one is going to care for you if you carry on like this. You have no more mind than a blade of grass."

O'rta murakkablikdagi o'zida tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati, muloqot uslubi, maqollari, ibora va slenglarini o'zida aks ettirgan, tarjimada aynan o'zbek tilidagi ekvivalent iboalar va maqollarni talab etadigan matnlar. Bunday matnlar bilan aynan Akademik litseyning barcha guruhlarida foydalanish mumkin. Bunday matnlarga "yoshlar, tabiat, kitoblar, filmlar" mavzuidagi matnlarni misol qilib keltirish mumkin:

A:B, you look pale. How come

B: Oh, you know what, days ago the Harry Potter and the Deathly Hallows part two was hitting the big screen. It was really a bad flick, but I got a unlucky cold those days and regretfully missed it. Plus, the other day I purchased a YISHION T-shirt. Whereas, I perceived I got ripped off again seeing the shirt's scratches. That sucked me. I feel like such an airhead. I'm a total loser. That's why I get so bent.

A: Buddy, you are all wet over the perspective of being a idiot. It's gonna be all

right. Aware that the following classes are a waste of life, I make a suggestion of playing hooky and then find a nearby action in this area.

Murakkab turdagi matnlar o'zida yosh, jins, ijtimoiy sinf, shuningdek mamlakat madaniyati bilan birga bir sotsial guruhgagina hos bo'lgan so'zlarni o'zida jamlaydi. Tarjimada bir muncha qiyinchilik tug'ilishi mumkin, chunki aynan o'zbek tilida ekvivalenti yo'q so'z yoki iboralar ham uchrashi mumkin. Bunday matnlarni o'qishni ingliz tili chuqurlashtirilgan Akademik litsey guruhlariga tavsiya etamiz. Masalan:

I got up and put on my black daks. They are the most exy piece of my clobber as they're my Dad's last Chrissie prezzie. My Dad's a bonzer bloke and I like him most of all my rellies. That's cos I've got no Mum and my brother's a bloody bludger and an ignorant ocker. We've never been matey with each other and I often get aggro with him.

I had a nana and a sanger for brekkie and then took my ankle biters to the kindie. In the arvo I talked to my nibs about our new Kiwi bizzo partners, and I had a snag and a durry during the smoko. In the evo I dropped in to the shop to buy some tucker and grog for the barbie we'll have on Sunday. It's London to a brick that no one will bring anything, we've agreed it would be a BYO party though.

Shuningdek, talabalarda sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishda dars davomida ertaklar, badiiy asardan parchalar o'qish ham yaxshi samara beradi. (Ilova 1) Samaradorlikni tekshirish talabani qanchalik sotsiolingvistik predmetlarni yaxshi aniqlay olganligini quyidagi mashq yordamida aniqlandi.

Questions:

1. Retell me the tale or the story. What do you understand?
2. What words are unknown to you?
3. Do you know the meanings of these idioms and proverbs(slangs, phrases) in this text?
4. Do you think that it is interesting?

O'qilgan asar, ertak yoki hikoyadan parcha tanlab olib uni rollarga bo'lib ijro etish ham yaxshi natija ko'rsatadi. J. Jalolov fikricha, o'qilgan matn

mazmunini rollarga kirib ijro etish, matndagi qahramonlar fikrini o'z so'zlari bilan bayon etish mustaqil fikrlashga va o'z fikrini rkin ifodalay olishga undaydi. Bunday kommunikativ mashqlar yordamida matn tahlil qilinadi va talabaning eslab qolish qobiliyati mustahkamlanadi.

Shuningdek, o'qish bilan bir vaqtda yozish faoliyatini ham olib borish lozim. Yozuv faoliyati o'z navbatida o'qish davomida olgan bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlaydi va ko'proq samaraga erishishga yordam beradi.

Tajriba-sinov jarayonida ingliz tili darslarida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish uchun nutq faoliyatining yozuv turidan keng foydalanildi. Nutqning bu uslubidan foydalanish jadvallar tuzish va ularni to'ldirish (jadval) metodi yordamida foydalanish yaxshi natija berdi. Jadvallar ingliz va o'zbek tillarida qiyoslash, solishtirish, tahlil qilish kabi faktorlarga tayangan holatda amalga oshirildi.

Bu metod yordamida talabalarning ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning madaniyati va muloqot uslubini o'zida jamlagan sotsiolingvistik predmetlar bilan yaxshilab tanishtirish va madaniyatlararo muloqot chog'ida to'g'ri va o'rinli foydalanishlarini ta'minlash.

Avval yosh, jins, ijtimoiy sinf, millat, din, kasb yoki mamlakatga hos bo'lgan turlardan biri tanlanadi va jadvalga ingliz tilidagi ibora, sleng yoki maqolning o'zi va ma'nosi o'qituvchi tomonidan beriladi, talabalar esa ayni shu ibora yoki maqolning o'zbekcha muqobili (ekvivalenti)ni va ma'nosini yozishlari topshiriq qilib beriladi. Bu metod talabalarning iboralarni topish va ularni solishtirish davomidagi harakati natijasida ayni ibora va maqollarning talaba hotirasida yaxshi saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. So'rovlar natijasida, ishlab chiqilgan sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish metodlari orasida talabalar tomonidan eksperimental sinov davrida ushbu metod eng samaralisi deb topildi va yaxshi natijalarga ayni shu metod orqali erishildi. Barcha sotsiolingvistik ko'rinishlarni o'zida aks ettirgan jadvallar turiga qarab turli hil bo'lib quyida ulardan biriga misol keltiramiz.

Masalan mamlakat doirasida:

Yangi Zelandiya Sleng yoki ibora	Standart ingliz tilidagi ma'nosi	O'zbek tilidagi ekvivalent ibora	O'zbek tilidagi ma'nosi
Cheers	Thanks	Yashasin	Minnatdorchilik
Cheerio	Goodbye	Sog' bo'l, ko'rishamiz	Hayr
Chuddy	Chewing gum	Chaqich	Saqich
Dodgy	Bad, unreliable, not good	Dabdala, chatoq	Yomon
Flog	Steal, rob	Urrib ketibdi	O'g'irlamoq
Home and hosed	Safe, successfully finished, completed	Ohiri bahayr bo'lmoq	Yaxshi, omadli to'liq yakunlanmoq
Kick the bucket	Die	Omonatini topshirmoq	O'lmoq
Mad as a meat axe	Very angry or crazy	Jig'ibiyron	Juda qattiq achchiqlanmoq
Mate	Buddy	Oshna, ulfat	Do'st, og'ayni
Nana	Grandmother, grandma	Acha, anna, obuva	Buvi
Pinky	Little finger	Jimjiloq	Kichkina barmoq
Piss around	Waste time, muck around	Vaqtini zoya o'tkazmoq	Behuda vaqt sarflamoq
Sprog	Child	Kichkina, kichkintoy	Yosh bola
Ta	Thanks	Yashang	Rahmat

Oldies	Parents	Qariyalarim	Ota-onam
Ropeable	Very angry	Sochi tikka bo'ldi	achchiqlandi
Shoot through	To leave suddenly	Qo'qqisdan chiqib ketdi	Kutimaganda ketmoq
Squize	Take a quick look	Ko'z tashlamoq	Biq qarab qo'ymoq
Strapped for cash	Low on cash, no money	Cho'ntagi quruq	Puli yo'qlik (yoki juda oz)
Wally	Clown, silly person	masqaraboz	Kulguli inson

(5-jadval)

Boshqa turga oid jadvallarni magistrlik dissertatsiyasiga ilova tarzida havola etamiz.(Ilova 2)

Nutq faoliyati turlaridan biri tinglab tushunish ham talabalarning ingliz tili darslaridagi sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, ayni faoliyat sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishdagi asosiy bosqich hisoblanadi.

Tinglab tushunish darslarida foydalaniladigan materiallar avvalo, autentik bo'lishi lozim. Autentik materiallar so'zlovchining audio yoki video formatdagi nutqi. Autentik materiallar ikki turli bo'lib, biri asl-autentik ikkinchisi, ta'limiy-autentik.

Asl-autentik- original manbalardan olingan, tili o'rganilayotgan mamlakat asl vakilining sof talaffuzida, ayni madaniyatga hos leksik, semantik, sotsiolingvistik holatlarni aks ettiruvchi materiallar.

Ta'limiy-autentik-ayni biror ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan, sekinlashtirilgan, til o'rganayotgan mamlakat madaniyati va ruhiyatiga moslab

tuzilgan, til o'rganayotgan mamlakat vakili tamonidan sun'iy muhitda hosil qilingan vaziyatlar aks ettirilgan materiallar.

Ta'limiy-autentik materiallar ingliz tilini o'rganishda yaxshi samara beradi, ammo talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini shakllantirishda asl-autentik materiallardan foydalangan ma'qul. Chunki, talabalarda ko'nikma hosil bo'lishida, ular foydaliroq. Shu o'rinda aytish kerakki, bunday materiallar ham ma'lum talablarga javob berishi kerak:

1. Materiallar talabalarning yosh hususiyatlarini inobatga olgan holda tanlanishi;
2. Matn tarkibi yangi va ikkala jins vakillari uchun ham birdek qiziqarli ma'lumotlarga boy bo'lishi;
3. Turli nutq (talaffuz) ko'rinishlarini ifodalashi;
4. Keltirilayotgan vaziyat, personajlar va muhitning tabiiy ifodalanishi;
5. Matnni tinglab tushunish natijasida talabalarning shu mavzu doirasida bahs va munozaraga o'zining fikrini va hissiyotlarini bildirishi;
6. Matnning tarbiyaviy ahamiyatga molik mavzularni o'zida qamrab olganligi;
7. Milliy qadriyat va madaniyat ko'rinishlarini aks ettirishi darkor.

Methodist olimlarimiz ta'kidlaganlaridek, talabalar matn mazmunini obrazga kirib ifodalash, matnda aks etgan voqelikni, unda ishtirok etayotgan personajlar fikrini bayonidan boshqa, o'z fikr-mulohazalarini ham suhbat mavzusiga qo'shimcha tariqasida bayon etishi, o'quvchini lug'at boyligini ortishiga ingliz tilida to'g'ri fikrlashga yordam beradi. Bunday uslubdan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanilsa, o'zlashtirish bo'yicha ham, o'qitish muddatlari bo'yicha ham, ingliz tilini mukammal o'rganishda ham ijobiy natijalarga erishishga imkon yaratiladi

Ingliz tili darslarida yuqoridagi talablarga javob bera oladigan audio va video materiallaridan foydalanish, yuqori natijalar beradi. Tinglab tushunishga mo'ljallangan (Audirovaniye) materiallarni disk holatida magistrlik dissertatsiyasiga ilova tarzida keltiramiz. (Ilova 3)

Amaliy mashg'ulotlarni amalga oshirishda, kompyuter texnologiyalarining o'rnini beqiyos. Ulardan dars mobaynida to'g'ri va umumli foydalanish hozirgi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

III. 2. Ingliz tili darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, talabalar sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ta'limning barcha bosqichlarida horijiy tillarni ayniqsa ingliz tili o'rganishni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutahassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, halqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari lozimligi ko'zda tutilgan.ⁱⁱ Ayni qarorning ijrosi sifatida ta'lim tizimida ingliz tili o'qitish, o'rgatish ilmiy yondashuv asosida, davr talablariga to'la javob bera oladigan yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar joriy etilishi asosida yangi sifat darajasiga ko'tarilib bormoqda.


Akademik litseylarda ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishning axborot texnologiyalari yordamida hosil qilingan materiallarni ishlab chiqish va shu maqsadda metodik dasturlarni tuzish tamoyillarini amalga oshirish bugungi kunning asosiy talabi. Bu modellashtirilayotgan dasturda konseptual asosni oldindan belgilab olish demakdir. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimiga ingliz tilida tilning sotsiolingvistikasini o'rgatish texnologiyasiga ham yuqorida qayd etilgan vazifalarni hayotga tatbiq etish masalalarining bir qirrasini deb qarash mumkin. Mutaxassislar tayyorlash jarayonlarida ta'lim tizimi ustuvorligini, jumladan, chet tillar o'qitish yangi-yangi texnologiya-mexanizmlarini joriy qilishni ta'minlash muhim ahamiyat

kasb etadi. Ma'lumki, tafakkurning ifodasi, xalqlar o'rtasidagi aloqa, ma'naviy va boshqa muloqotlar til orqali namoyon bo'ladi.

Bunday texnologiyalar ta'lim tizimida o'z aksini topishi chet tili o'qitish saviyasini o'stiradi. Chet tilida, jumladan, ingliz tilida mutoala qilish malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Akademik litsey har bir yo'nalishi bo'yicha, shuningdek, ingliz tilini mukammal o'zlashtirganlarga istiqboldagi ehtiyojlarni belgilash bo'yicha tarmoqlar metodikasini yaratishimiz (bular Klassifikator, malakali tavsiflar va Davlat ta'lim standartiga muvofiq amalga oshiriladi) lozim.

Ingliz tilida muloqot qilishda, nutqini tushunish mutolaa qilish va yozish, nutqiy faoliyat amaliyotida, ixtisoslik, mutaxassisligi bo'yicha keng tarmoqli va kasbiy adabiyotlarni o'qishda ularga tushuntirish annotatsiyalar, tezislar, shuningdek, yozma axborot almashish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi va aniqlanadi.

Akademik litseylarda ingliz tili darslarida nutqni rivojlantirish uchun kompyuter texnika vositalari, magnit disklaridan foydalangan holda, turli dasturlar asosida axborotni, matn mazmunini qabul qilish osonlashadi.



(6-diagramma)


Qo'shimcha matn mohiyatidan kelib chiqib, kompyuter vositasida ta'limiy til o'rganish bo'yicha turli o'yin shaklida yaratilgan dasturlar vositasida tuzilgan kompozitsiyani yozib ko'rsatish yoki so'zlab berish taklif etilishi, yoki oldindan ajratib olingan rasmlar yordamida ma'lum vaziyatni yaratish so'ngra o'sha kompozitsiyani so'zlab berish kabilardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalarining sotsiolingvistikaning rivojlantirishdagi ahamiyati yuqoridagi diagrammada o'z aksini topadi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali:

- darslardagi nazariy ma'lumotlar mustahkamlanadi;
- o'quvchilarning to'liq diqqati jamlanadi;
- dars qiziqarli interfaol o'yin va topshiriqlar bilan boyitiladi;
- darsning amaliy qismi faollashadi;
- materiallar tushunarli va oson holatda gavidalanadi;

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda akademik litsey talabalarining ingliz tili darslaridagi sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan uslublarning elektron holatidagi materiallarini ham taqdim etish bizning asosiy maqsadlarimizdan biri hisoblanadi. Bu borada biz talabalar dars davomida qo'llanilgan uslublarni yanada mustahkamlash maqsadida harakatlanuvchi elementlar bilan takomillashtirilgan hozirgi kundagi rivojlanib kelayotgan Macromedia flash dasturida ishlangan "Sotsiolingvistika va sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan materiallar"ni o'zida jamlagan elektron materiallarni ham taqdim etmoqdamiz. (Ilova 4) Bu dasturning samaradorligi shundaki, dasturda animatsion effektlarga boy bo'lgan ma'lumotlar, mashqlar, testlarni boshqa dasturlarga qaraganda ishlab chiqish imkoniyati kengroq. Albatta ma'lumotning uzatilishi va talabalarining mavzuni tushunish darajasi oddiy darslardagidan ancha yuqoriroq. Chunki, psixologik jihatdan berilgan ma'lumotlarning mustahkamlanishi uchun ko'rish faoliyatining keng ishtiroki talab etiladi.




(3-chizma)

Umumiy holatda olinganda Macromedia flash dasturida ishlangan materiallar o'zining originalligi bilan ajralib turadi, buning sababi sifatida harakatlanuvchi effektlarni keltirishimiz mumkin.




Talabalar bu dasturda ishlangan ma'lumotlarni nafaqat ko'radilar balki, bu jarayonda o'zlari ham ishtirok etadilar. Bu esa talabalarning diqqatini to'liq egallay olishni taqdim etadi.



Shuningdek, talabalar mavzuga doir mashqlar va testlarni ham bevosita ishlay oladilar.

Birinchi navbatda, talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasining qay darajada shakllanganligini aniqlab olish lozim. Shundan so'nggina, barcha darajalar uchun teng qo'llanilishi mumkin bo'lgan, macromedia flash dasturida tayyorlangan sotsiolingvistika va sotsiolingvistik kompetensiya shuningdek, ijtimoiy guruhlar va tili o'rganilayotgan mamlakatlar so'zlashuv uslubi va sotsiolingvistik predmetlar haqida ma'lumot beruvchi prezintatsiya tarzida ishlangan elektron material taqdim etiladi.



Elektron materiallardan nazariy bilimlarni mustahkamlash, talabalarning mavzuni to'liq va mustahkam qabul qilishlari uchun foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sotsiolingvistik kompetensiyasi yaxshi shakllangan talabalar(ingliz tili chuqurlashtirilib o'tiladigan guruhlar talabalari) flash yoki power point dasturlarida ishlab chiqilgan testlardan foydalanib bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

Bunday testlarda quyidagi holatlar aks etadi:

- yosh davrlari bo'yicha;
- jins hususiyatlari bo'yicha;
- tili o'rganilayotgan mamlakatlarning madaniyati va so'zlashuv uslublari bo'yicha;
- sotsiolingvistik predmetlar: maqollar, iboralar, slenglar va matallar bo'yicha to'g'ri muloqotni tanlay olish;

Shuningdek, axborot texnologiyalaridan ish rejadagi mavzularga qo'shimcha sifatida ham foydalanish yaxshi samara beradi:

N	Bo'limlar va mavzular nomi	Dars soati	O'tkaziladi gan nazorat turi	Axborot texnologiyasi dan foydalanish
1	The art of Great Britain	2	Joriy nazorat	Interfaol o'yin tarzidagi san'at sohasigagina oid so'zlar lug'ata
2	Vocabulary: Active words and word combinations	2	Joriy nazorat	Sotsiolingvistik predmetlar elektron testi
3	The British museum	2	Joriy nazorat	Britaniyaliklarning turli shevalari haqidagi prezintatsion lavhalar
4	Vocabulary: Active words and word combinations	2	Joriy nazorat	Sotsiolingvistik predmetlar elektron testi
5	Types of sentences	2	Joriy nazorat	Power point dasturida ishlanadigan gap turlari haqida slaydlar
6	The Architecture of Great Britain	2	Joriy nazorat	Kasbga doir sotsiolingvistik ko'rinishga ega bo'lgan

				so'zlar bilan boyitilgan interfaol mashqlar
7	Future simple in passive	2	Joriy nazorat	Fe'l zamonlari interfaol elektron test
8	Famous people of Uzbekistan	2	Joriy nazorat	O'zbekistonning mashhur insonlari haqida power point dasturida slaydlar
9	Famous artists of Great Britain	2	Joriy nazorat	Buyuk Britaniya mashhur insonlari haqida slaydlar
10	The role of science and modern technologies in manufacture	2	Joriy nazorat	Ilmiy terminlar va ularning sotsiolingvistik ekvivalentlari haqida namoyish
11	Dialogue: At the office	2	Joriy nazorat	Online muloqot.

(6-jadval)

Demak, texnologiyalarni joriy qilish, o'qitish uslublarini davr talabiga javob berishini ta'minlash pedagog-olimlarning kechiktirib bo'lmas asosiy vazifalaridir

III. 3. Akademik litsey talabalarining ingliz tili darslarida sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirish metodlarining eksperimental tadqiqi

Tadqiqot doirasidagi eksperimental tajriba ishlari quyidagi tartibda olib borildi:

- tajriba o'tkazish muassasasi aniqlab olindi. Tajriba-sinov ishlari Namangan shahridagi NamDu qoshidagi 1- akademik litseyda 2013-2014 o'quv yillari davomida o'tkazildi; (Ilova 5)
- ilmiy faraz ishlab chiqildi, eksperiment dasturi tuzildi, eksperimental materiallar to'plandi;
- tajriba ob'ekti va sinaluvchilar tanlandi;

Birinchi navbatta, tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsad va vazifalari aniqlandi. Mazkur tadqiqot oldiga qo'ygan umumiy maqsad – akademik litsey talabalarining ingliz tili darslarida sotsiolingvistik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy jihatdan asoslangan va eksperimental sinovdan o'tkazilgan uslubiy metodlarini yaratishdan iborat.

Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi quyidagi holatlarni amalga oshirish orqali ro'yobga chiqariladi:

- eksperimental tadqiqot materialini aniqlash va to'plash;
- eksperiment dasturini tuzish;
- ilmiy farazni ishlab chiqish;
- sinaluvchan guruhlarini aniqlash va saralash;
- eksperimental ishni tashkil qilish va o'tkazish;
- natijalarni yig'ib borish;
- olingan natijalarni umumlashtirib ko'rib chiqish va ilmiy izohlash;
- eksperiment yakunida ilmiy hulosalar va metodik tavsiyalar majmuini ishlab chiqish.

Tajriba-sinov ishlari materiali doirasiga quyidagilarni kiritdik: (1) tadqiqot muammosini aniqlash, (2) eksperimental materiallarni aniqlash, (3) sinovdan o'tkaziladigan metodik g'oyalarni ko'rib chiqish.

Akademik litsey o'quvchilarini tajriba- sinov natijalarining samaradorligini aniqlash maqsadida, ikki guruhga ya'ni: nazorat guruhi (NG) va tajriba guruhi(TG)ga bo'lib, avval ikki guruhning ham, umumiy sotsiolingvistik bilimi va sotsiolingvistik kompetensiyalari qay darajada shakllangan ekanligini aniqlab oldik.

Birinchi navbatta, talabalar o'rtasida sotsiolingvistika va sotsiolingvistik kompetensiya haqida so'rov o'tkazdik. Bu borada quyidagi javoblarni oldik.

Tilshunoslikka aloqador fan.	12 ta
Sotsiologiyaning bir bo'limi.	17 ta
Umuman bilmayman.	11 ta

(7-jadval)

Natijalardan ko'rinib turibdiki, akademik litsey talabalarida sotsiolingvistika va sotsiolingvistik kompetensiya haqida yetarli darajadagi bilim shakllanmagan. Ammo, ularda sotsiolingvistik kompetensiya shakllangan bo'lishi mumkin. Buni aniqlash uchun ham, sotsiolingvistik predmetlar va mamlakatlararo muloqot yuzasidan so'rov o'tkazdik. Quyida o'tkazilgan so'rov natijalarini keltiramiz:

	Bilmayman		O'rta darajada		Yaxshi bilaman		FOIZ%	
	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG
Tili o'rganilayotgan mamlakat maqollari	5	4	6	9	9	7	75%	80%
Tili o'rganilayotgan mamlakat vakillarining yosh hususiyatiga ko'ra nutqini	5	8	7	6	8	6	75%	60%
Tili o'rganilayotgan mamlakat vakillarining jins hususiyatiga ko'ra nutqini	6	6	6	7	8	7	70%	70%
Ular nutqidagi slenglarni	3	5	8	8	9	7	85%	75%
Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning sotsiolingvistik bir-biridagi farqini	4	4	9	8	7	8	80%	80%
Shevaga hos bo'lgan so'zlar(dialekt)ni	6	8	8	7	6	5	70%	60%
Tili o'rganilayotgan mamlakat vakillari nutqidagi iboralar va ularning ma'nosini	5	5	7	8	8	7	75%	75%
Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar bayram, to'g'ri va tug'ilgan kunlarida ishlatadigan so'zlar	3	7	8	6	9	7	85%	65%

(8-jadval)

Shuningdek, ikki guruh o'rtasida sotsiolingvistik kompetensiyalarini aniqlash maqsadida tajriba oldi sinov o'tkazdik va quyidagi natijaga erishdik.

Bajarilgan amallar	TG			foiz	NG			foiz
	“5”	“4”	“3”	%	“5”	“4”	“3”	%
Tinglab tushunish	6	7	7	65%	5	6	9	55%
O'qib tushunish	9	9	2	90%	8	9	3	85%
Tarjima qilish	8	10	2	90%	9	8	3	85%
Jadvallar bilan ishlash	6	9	5	75%	8	7	5	75%
Umumiy natija	O'rta			80%	Past darajadagi o'rta			75%

(9-jadval)

Olingan natijalarga ko'ra, eksperimental tajriba uchun ishlab chiqilgan metodlarni ingliz tili darslariga qo'shimcha tarzda berib, natijalarini qayd etib bordik.

Tajriba guruhiga tayyorlangan materiallar ingliz tili o'qituvchisiga berildi. Nazorat guruhi bilan esa, ingliz tili darslari davomida birga ishladik va ish rejadagi mavzularga qo'shimcha ravishda to'plangan materiallarimiz bilan boyitib bordik.

Birinchi metodimiz, sotsiolingvistik hususiyatlarga ega bo'lgan matnlarni o'qib tushunish, shuningdek, yosh, jins, millat, ijtimoiy sinf faktorlariga hos bo'lgan so'zlarni aniqlay olish bo'lib, bu metoddan mavzularga mos tarzda keng foydalandik va quyidagi natijalarga ega bo'ldik.

	“5”	“4”	“3”
Oson matnlar (faqat madaniyatga hos so'zlarni jamlagan)	10	6	4
O'rta darajadagi (muloqot uslubi, maqollari, ibora va slenglarini o'zida ak)	9	7	4

ettirgan)			
Murakkab darajadagi(yosh, jins, ijtimoiy sinf, shevaga hos so'zlarni o'zida aks ettirgan matnlarni)	7	8	5
Umumiy natija	78%		

(10-jadval)

Sotsiolingvistik husussiyatlarni o'zida aks ettirgan matnlarni o'qish davomida talabalar tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati, so'zlashuv uslubi, nutqidagi shevaga hos so'zlar va yosh va jins faktorlarining so'zlashuv davomidagi o'ziga hosliklari bilan tanishdilar, asosiy mavzuni mustahkamladilar sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantira boshladilar.

Keying metodimiz, tinglab tushunish va tushunganlarini qayta so'zlab berish. Bu metod o'quvchilarning nafaqat eshitib tushunish qobiliyatini rivojlantiradi balki, hotirani ham mustahkamlaydi. Audio materialda keltirilgan mavzu bayonini oson yodda tutishga sabab bo'ladi.

	“5”	“4”	“3”
Angliya shevasidagi audio matn (erkak, ayol, o'smir nutqi)	10	9	1
Kanada shevasidagi audio matn (erkak, ayol, o'smir nutqi)	8	7	5
Amerika shevasidagi audio matn (erkak, ayol, o'smir nutqi)	9	9	2
Avstraliya shevasidagi audio matn (erkak, ayol, o'smir nutqi)	6	6	8
Yangi Zelandiya shevasidagi audio matn (erkak, ayol, o'smir nutqi)	7	8	5
Umumiy natija	79%		

(11-jadval)

Navbatdagi metod, ya'ni jadvallar bilan ishlash metodida talabalarning ingliz-o'zbek, o'zbek-ingliz tilidagi sotsiolingvistik predmetlarni solishtirish, taqqoslash orqali ibora, maqol va slenglar bilan tanishib boradilar, shuningdek, o'zbek tilidagi muqobilini topish va uni jadvalga yozish orqali o'rgangan

ma'lumotini mustahkamlaydi. Jadvallardan ingliz tili darslarida mavzuga hos bo'lgan iboralarni toppish orqali ham foydalansa bo'ladi. Jadvallar metodidan mavzularga mos tarzda foydalandik, va quyidagi natijalarga erishdik.

	“5”	“4”	“3”
Angliya so'zlashuv madaniyatiga hos bo'lgan ibora va slenglar jadvali	9	10	1
Amerika so'zlashuv madaniyatiga hos bo'lgan ibora va slenglar jadvali	8	8	4
Avstraliya so'zlashuv madaniyatiga hos bo'lgan ibora va slenglar jadvali	7	8	5
Kanada so'zlashuv madaniyatiga hos bo'lgan ibora va slenglar jadvali	9	9	2
Yangi Zelandiya so'zlashuv madaniyatiga hos bo'lgan ibora va slenglar jadvali	8	7	5
Umumiy natija	83%		

(12-jadval)

Nazorat guruhi talabalari bu metodlar yordamida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Matnlar o'qish va tahlil qilish, audio materiallarni tinglab tushunish, jadvallarni to'ldirish va o'rganganlarini lug'at tarzida yozib bordilar. Quyida nazorat guruhining tajriba sinov oldi, sinov davridagi natijalarini keltirmoqchimiz.

Nazorat guruhining tajriba sinov oldi natijasi	75%	Past o'rta daraja
Nazorat guruhining sinov davri mobaynidagi natijasi	80%	O'rta daraja

(13-jadval)

Yakuniy sinov tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida teng o'tkaziladi va hulosalovchi ko'rsatkichlar keltiriladi. Ishlab chiqilgan metodlar samaradorligi aniqlanadi.

	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
--	-----------------------	-----------------------

	“5”	“4”	“3”	“5”	“4”	“3”
Tinglab tushunish	9	8	3	10	8	2
O’qib tushunish	10	8	2	9	8	3
Tarjima qilish	10	8	2	10	10	-
Jadvallar bilan ishlash	12	6	2	12	8	-
Qayta so’zlab berish	8	8	4	8	6	6
Umumiy natija	87% yuqori			89% yuqori		

(14-jadval)

Tajriba-sinov maqsadi amalga oshirildi. Tajriba davri mobaynida nazorat guruhi “75%” dan “89%” gacha ko’tarildi. Eksperiment natijalariga ko’ra aytish mumkinki, akademik litsey talabalarining sotsiolingvistik kompetensiyalarini ishlab chiqilgan metodlar yordamida shakllantirish va samaraga erishish mumkin.

UCHINCHI BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Tadqiqotni yakunlovchi ushbu bobda akademik litsey talabalarining ingliz tili darslarida sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga mo'ljallangan metodlar tavsifi va tajriba-sinov jarayoni va natijalari o'z ifodasini topgan. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mobaynida mazkur sohaga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlar, qo'llanmalar va dissertatsiyalar, dastur va ishchi rejalar o'rganildi va tahlil etildi. Kuzatuvlar va o'tkazilgan so'rovlar natijasida Akademik litsey ingliz tili darslarida sotsiolingvistikaning ham o'rni beqiyos ekanligi aniqlandi. Shuningdek, bir nechta kamchiliklar aniqlandi. Ulardan asosiysi sifatida, talabalarning tili o'rganilayotgan mamlakat so'zlashuv madaniyati, yosh va jins hususiyatiga hos bo'lgan ma'lumotlarni yaxshi bilmasligi;

-ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning shevaga hos bo'lgan so'zlarini aniqlay olmasligi;

-sotsiolingvistik hususiyatlarni o'zida aks ettirgan materiallarni tinglab, o'qib tushunmasliklarini keltirishimiz mumkin.

Ingliz tili darslarida ko'proq grammatik qoidalarga ahamiyat qaratilishi va ko'proq nazariy ma'lumotlar bilan dars o'tish talabalarning darslarga bo'lgan qiziqishlarini pasaytirib bormoqda. O'smir talabalar o'rtasida o'tkazilgan "Ingliz tilini o'rganishdan maqsadingiz degan savolimizga 80% talabalar horij universitetlariga o'qishga kirib, davlatimiz nufuzini oshirmoqchi ekanliklarini aytishdi. 14% talaba kelajakdagi kasblarida ingliz tilining kerakligi shuningdek, jahon tili sifatida o'rganish foydali deb hisoblashsa, 6% gina talaba barcha qiziqqani uchun o'rganayotganliklarini aytib o'tishdi. Shunday ekan, talabalar kelajakda horijiy til vakillari bilan bermalol suhbat qura olishlari, chet tilidagi durdona asarlarni o'qiy olishlari, umuman dunyo bilan hamnafas bo'lishlari uchun AL talabalarining ingliz tili darslarida sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish bugunning dolzarb talabi deb hisoblaymiz. Tajriba-sinov davrida metodlarga talabalarning hohish va qiziqishlari va turli fikr-mulohazalarini hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritildi va takomillashtirildi.

Eksperiment o'tkazish metodikasining nazariy va amaliy masalalari ko'rib chiqildi: uning tashkiliy bosqichiga alohida e'tibor berildi. O'qish jarayonida duch kelinadigan leksik-grammatik qiyinchiliklarning metodik tipologiyasi yaratildi. Tilni o'rganishga salbiy ta'sir etadigan (interferensiya) hodisalar o'rganildi.

Tajriba-sinov jarayonidagi anketa savollari ikki bosqichda olib borildi va o'quvchilarning fikr va mulohazalari aniqlandi. Anketa savollarining birinchi bosqichida talabalarning tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va sotsiolingvistik predmetlarini qanchalik bilish darajasi aniqlandi. Anketa javoblari natijasida, talabalarning aksariyati ular haqida ko'p ma'lumot bilmasliklari va sotsiolingvistik darajasi o'rta va o'rtadan past darajada ekanligi aniqlandi.

Talabaning o'qishga bo'lgan qiziqishi, motivatsiya(ichki turtki) va malakalari shakllanganligi bo'yicha fikr mulohazalar yuritildi. Darsda foydalaniladigan matnlarni soda, o'rta va murakkab turlarga bo'lib olindi. Nutq faoliyati turlari o'qish, tinglab tushunish, yozish, gapirish turlarini birgalikda olib borish ta'lim samaradorligini oshiradi degan fikrga kelindi. Shuningdek, mamlakatshunoslikka doir matnlar ustida ishlash ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, o'quvchilarning horijiy tilde gazeta, jurnal va kitoblardan sohaga oid matnlarni tanlab olish malakalarini rivojlantirishga hizmat qiladi.

UMUMIY XULOSALAR

- I.** Sotsiolingvistika haqida to'liq ma'lumot berildi va uning chet tili o'rganish/o'rgatish jarayonidagi ahamiyati aniqlandi
- Ijtimoiy guruhlar ularning roli va o'ziga hosliklari o'rganib chiqildi.
 - Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar so'zlashuv uslublari va so'z tanlash hususiyatlari ko'rib chiqildi.
 - Sotsiolingvistik kompetensiya tushunchasi o'rganildi. Chet tili o'rganishdagi sezilarli hissasi ochib berildi.
- II.** Akademik litsey ingliz tili darslari izchil o'rganildi.
- Kuchli va kuchsiz tamonlari aniqlandi.
 - Yosh davrlari hususiyatlari o'rganildi.
 - Yosh davrlarining muomala madaniyati so'z tanlashdagi o'ziga hosliklariga misollar keltirildi.
 - Tildan foydalanishda genderlar yondashuvi ko'rib chiqildi va misollar berildi.
 - Ingliz tilini o'rganish va muloqotga to'g'ri kirisha olish shartlari keltirildi,
 - Sotsiolingvistik muammolarni oldini olish yuzasidan fikrlar berildi. Misollar keltirildi.
 - Ingliz tilining O'zbekiston Respublikasidagi ahamiyati ko'rsatildi.
- III.** Akademik litsey talabalarining sotsiolingvistik kompetensiyasini shakllantirish metodlari: tinglab tushunish, o'qish, yozish, gapirishga asoslangan holda ishlab chiqildi.
- Sotsiolingvistik atamasi birinchi marta yoritildi va ahamiyati ochib berildi.
 - Sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishda yordam beruvchi axborot texnologiyalaridan foydalanib nazariy ma'lumotlar electron shakli ishlab chiqildi.
 - Tajriba-sinov maydoni aniqlandi va eksperimental tadqiqot o'tkazildi.
 - Tajriba-sinov natijalari keltirildi.
 - Ishlab chiqilgan metodlar samaradorligi tajriba-sinov yakuniy natijalariga ko'ra isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

“Ta’lim to’g’risidagi qonun” “Sharq” nashriyoti matbaa.-T; 1997

II. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmon va qarorlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi PQ-1875 son qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi prezidenti asarlari

Karimov. I. A “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”. Sharq nashriyot-matbaa konserni-T; 1998 yil. 31 bet

IV. Asosiy adabiyotlar.

1. Aries, Elizabeth .1997 Women and Men Talking: Are They Worlds Apart? In Women, Men, and Gender, edited by Mary Roth Walsh, pp.91. Yale University Press, New Haven
2. Belikov V. I, Krisin L.P “ Sotsiolingvistika” M. RosGos gumanit 2001. st 240.
3. Bell R. Sotsiolingvistika: per. S angl. Moskva 1980.
4. Brandone, Amanda, Salkind, Sara, and Golinkoff, Roberta, "Language Development" (n.d.): 499–5145
- 5.. Deckert, Sharon K. and Caroline H. Vickers. (2011). An Introduction to Sociolinguistics: Society and Identity. Page 59
6. Edelsky, Carol .1993 Who’s Got the Floor? In Gender and Conversational Interaction, edited by Deborah Tannen, pp.189-230. Oxford University Press, New York
7. Gumpez John J. “Studying language, culture, and society: sociolinguistics or linguistic anthropology? ” 2008.532-545
8. Kormos, Judit and Csizér, Kata (2008) Age-related differences in the motivation of learning English as a foreign language: Attitudes, selves and motivated learning behavior. Language Learning, 58 (2). pp. 327-355. ISSN 0023-8333

9. Labov W (2001) "Principles of Linguistics, Changes: Social Factors" Malden, Ma: Blackwell. Dublin.
10. Mechkovskaya N. B. Sotsialnaya lingvistika. M. :Aspekt-press, 2000
11. Nichols, Patricia C .1983 Linguistic Options and Choices for Black Women in the Rural South. In Language, Gender and Society, edited by Thorne, Kramarae, and Henley, pp.54-68. Newberry House Publications, Inc., Rowley.
12. Paolillo, John C. Analyzing Linguistic Variation: Statistical Models and Methods CSLI Press 2001, Tagliamonte, Sali Analysing Sociolinguistic Variation Cambridge, 2006
13. Paulston, Christine Bratt and G.Richard Tucker."Sociolinguistics" The essential readings. Malden, Ma: Wiley-Blackwell 2003.
- 14 Serebrennikov B.A. .. "Obshiy yazikoznaniye. Formi sushestvovaniya, funktsii, istoriya yazika" M. 1970. 417
- Stewart William (1968) "A Sociolinguistic Typology for describing national multilingualism" The Hague, Paris. Mouton. p 534
15. Thurlow, C. (2001). Talkin' 'bout my communication: Communication awareness in early adolescence. *Language Awareness*, 10 (2&3), 213 –231.
16. Trushkova Yu. V, Kojemyakina V. A., Kolesnik N. V, Kryuchkova T. B, Parfyonova O. S., "Slovar sotsiolingvisticheskix terminov" M. 2006. 113- 130 st
17. Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. O'zMu. T. 2007. b. 4.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Berry, A. (1994). "Spanish and American Turn-Taking Styles: A Comparative Study." In *Pragmatics & Language Learning Monograph Series*, L. F. Bouton and Y. Kachru, (Eds.), 5, 180-190.
2. Blumenfeld, H; Faroqi-Shah, Y (2009). "Consequences for language, cognition, development, and the brain". *American Speech-Language-Hearing Association* 14 (13): 10.

3. Coppola, J.(2005). English language learners: Language and literacy development during the preschool years. Journal of the New England Reading Association, 41(2), 18-23.
4. Mamatkulova Gulsum Aristambekovna. "Vozrastniye I individual'no tipicheskiye razlichiya uchashixsya v usvoyenii inostrannogo yazika". Dissertatsiya. 1996.
5. Solovova Ye. N. "Metodika obucheniya inostrannim yazikam" (bazoviy kurs leksiy) M. Prosvesheniye. 2002. st 238
6. Universalnaya nauchno- populyarnaya onlayn ensiklopediya " Krugosvet" st 241
7. O'zME, 1- jild, toshkent 2000.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plam va ilmiy maqolalar.

1. Nosirov Abdurahim, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi boshqarma boshlig'i, "Har tilni bilmoq endi bani odama jondir" , "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 5-son 2013yil, 11-12 bet.
2. Ibragimov B, Matkarimov A, Maroziqov A. "O'zbekistonning horijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari" Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari ta'lim va tarbiya: muammolar va yechimlar. III respublika ilmiy- amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2013 yil Qo'qon.,325
3. Broersma David, Ph.D. Institute for Cross Cultural Training Wheaton College, Wheaton, the article "How do I learn sociolinguistic competence?"
4. Suvonqulova D " Modern methods of teaching English" Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari ta'lim va tarbiya: muammolar va yechimlar. III respublika ilmiy- amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2013 yil Qo'qon., 115 bet.
5. Stekolnikov Aleksey. "Aliye Parusa" ns. portal. ru.14.04.2012. "Vliyaniye sotovoga telefona na podrostkov".

6. Kolisnechenko V. L. “ Sotsiolingvisticheskiy aspekt v obuchenii angliyskogo yaziku na sovremennom etape” nauchnaya statya. kolisnechenko@yandex.ru.st 2
7. “Xalq so’zi” gazetasi, 11.12. 2012 yil., 240 (5660) -son

VII. Internet saytlari.

1. www.google.ru/the word combination differences between american and british english.
 2. www.litres.ru. Razdel 4“ Yazik i kultura obsheniya”
 3. [www. Teachingenglish.org.uk./the](http://www.Teachingenglish.org.uk/) english lesson plans. The British council 2013
-